

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA
MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**

BUXORO DALAT UNIVERSITETI

TARIX KAFEDRASI

**4-KURS KUNDUZGI BO`LIM BITIRUVCHISI
QOSIMOVA LOBARNING**

**TURKISTONDA MAXALLIY O`LKASHUNOSLARNING
O`RNI VA ROLI (19 ASR OXIRI 20 ASR BOSHLARI)**

MAVZUSIDA

***MALAKAVIY BITIRIUV
ISHI***

(2010-2011 o`quv yili)

Ilmiy rahbar:

A.I.To`raev

Buxoro-2012

Kirish:

Reja:

1. O'lkani o'rganishning tarixiy ahamiyati
2. Mahalliy o'lkashunoslar asarlarida o'lka tarixining yaratilishi.
3. Rus ziyolilarining mahalliy o'lkashunoslikka ta'siri

Xulosa.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

Kirish

Mavzuning dolzarbligi: O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining o'tgan tarixan qisqa davr mobaynida Respublikamiz hayotining barcha barcha jabhalarida ijobiy tub o'zgarishlar sodir bo'ldi. Hozirgi davrda milliy istiqlol g'oyasi va mafkurasi tanilayotgan bir paytda ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar mobaynida yaratilgan g'oyat ulkan, bebaho ma'naviy, madaniy merosimizning, o'tmish tariximizni, qolaversa o'lkamizni rivojlantirish borasidagi barcha chora – tadbirlar, o'zlikni anglash kabi masalalar, davlat siyosat darajasida yechilishi lozim bo'lishgan g'oyat muhim vazifa qilib belgilandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov tarixchi olimlar va ziyolilar vakillari bilan uchrashuvdagi nutqida ham O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining “O'zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasi tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to'g'risida”gi qarorida tarixchi olimlar oldiga, o'lkamiz tarixini, milliy davlatchilik va O'zbek xalqini kelib chiqish (etnogenez)ni holisona yoritish xalqimizning ko'p asrlar qadimiy an'analarini boy tarixiy – madaniy merosini o'rganish muhim vazifa qilib qo'yildi¹.

Bugungi kunda o'z – o'zini anglab mustaqiligimiz mustahkamlanib borayotgan bir damda, ona yurtining har bir farzandi uchun o'z tug'ilib o'sgan Vatanini tarixini sevish, o'rganish, diliga jo etishdan ham muqaddasroq burch bo'lmasa kerak. Bu vatan, bu tuproq necha yuz yillardan biyon ne –ne ulug' farzandlarini ardoqlab kelayotgan zamin. Shuning uchun biz uni e'zozlab ona tuproq deymiz. O'lkamizni, vatanimizni tarixini yoritishda o'lkashunoslikning salmog'i kattadir.

Har bir xalq tarixini asrab avaylab keladi. Tarixi ne'matlar bo'lmish merosdan kelajak sari ildam qadam bosish uchun kuch – quvvat oladi. Xalq ozodligi, faravonligi uchun qurbon bo'lgan milliy qahramonlar jasorati, millat

¹ Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Т: шарқ 1998; Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси тарих институти фаолияти такомиллаштириш тўғрисида” қарори.//Халқ сўзи, 1998 йил 28 июль.

ravnaqi uchun janbozlik qilgan ilm va fan sohiblarining faoliyati esa har bir avlod uchun yo'lchi yulduz bo'lib xizmat qiladi.

Ularning xotirasini abadiylashtirish esa bugungi va kelgusi avlodlarning muqaddas burchlaridan birdir. Zero, o'z tarixidan bexabar xalq mazlum xalq, tarixi yolg'on bilan yozilgan xalq mahkum xalq, tarixini asragan va bilgan xalq – qudratli va tenglar ichida teng xalqdir¹

Demak o'lkamizning tarixini o'rganish va unga o'z hissalarini qo'shgan Turkistonlik o'lkashunoslar xizmatlarini alohida ta'kidlab o'tishimiz joiz. Ular o'z ona yurti hisoblangan muayan o'lka, shahar yoki qishloq va boshqa territoriyalarning har tomonlama o'rganish, o'z o'lkasini, tabiatini, aholisini xo'jaligini, moddiy va ma'naviy madaniyatini o'rganib, ilmiy monografiya, maqolalar va asarlarning yuzagan kelishiga sabab bo'ldi.

Biz tadqiqotimiz orqali bugungi kunda qayta tiklanayotgan, milliyligimiz, o'zligimiz, tariximizni xolisona yoritish yo'qolib qadirsizlanib, borayotgan, milliy boylik bo'lgan san'at asarlarini izlab topish ularni O'zbekistonda qaytarish ma'naviy dasturimizning muhim bo'lagini tashkil etadi.

Bundan tashqari mahalliy o'lkashunos olimlarimiz asarlarini qimmatligi undagi arxeologik, etnografik toponimi materiallarda oqilona foydalanilganda.

Mavzuning o'rganish darajasi: Mavzuni o'rganishda I.Nabiyev "Tarixiy o'lkashunoslik"ka oid qator ilmiy tadqiqotlari diqqatga sazovordir. Ayniqsa Ibratning "Farg'ona tarixi" asari o'lkamiz xalqlarini moddiy va ma'naviy madaniyatini ochib berishda asosiy manba desak xato bo'lmaydi. Bundan tashqari bu manba xalqamiz shu jumladan tariximizni shahar qishloqlarning joylashuvi, o'lka toponimikasiga oid qimmatligi bilan ajralib turadi. Biz hozirda katta tantanalar bilan nishonlab kelayotgan shahar, joy nomlari nechog'lik navqiron ekanligini bu asar orqali bilib anglab olishimiz mumkin.

Ana shunday o'lkamiz tarixini xolisona yoritib berishda XX asrning o'rtalarida yashab ijod etgan buyuk olim tarixnavis Hokimxon To'radir. Uning "Muntaxabut tovorix ("Tanlangan tarix") asari o'lkamiz tarixini XIX asr

¹ Мерос. Ибрат. "Фарғона тарихи" Toshkent "Kamalak" 1991yil B-54.

boshlaridan to Rossiyaga qo'shilguncha va undan keyingi davrlarda yuz bergan tarixiy voqeylikni yoritib berishga xizmat qiluvchi manbadir.

Demak, yuqorida ta'kidlab o'tgan davrda yozilgan adabiyotlar, manbalar vatanimiz tarixini shu bilan birga o'rganilayotgan davrdagi xonliklar, Chor Rossiya hukumati o'rtasidagi, ijtimoiy – siyosiy, iqtisodiy – madaniy aloqalarni o'rganishda tahlil qilishda asos bo'lib xizmat qiladi.

Yurtimizga turli maqsadlarda kelgan sayyohatchi va olimlar ham o'lka tarixini, xo'jaligini boy madaniy merosni o'rganish bo'yicha umumiy tarzda bo'lsada bir qator ishlarni amalga oshirdilar. Ayniqsa Rus tabiatshunosi va sayyohi A.P.Fedchenko, geograf I.V.Mushketov, sharqshunos va arxeologik olimlardan N.I.Veselovskiy, A.L.Kun, V.V.Bartoldning xizmatlari katta bo'ldi.¹ Bu buyuk olimlarning asarlari va maqolalaridan ham foydalandik.

Bu mavzuni atroflicha yoritish maqsadida, to'plangan ma'lumotlarni to'ldirish maqsadida "Imom Al- Buxoriy saboqlari" jurnali va turli gazetallarda chop qilingan tarixiy ma'lumotlardan ham foydalanildi.

Tatqiqot maqsadi: Ushbu tatqiqot o'lkamiz tarixini o'rganish, mahalliy olimlarimiz tomonidan yozilgan asarlarni tahlili qilishdan iborat.

Shu orqali yosh barkamol avlodni har tomonlama yetuk komil inson o'z vatani tarixiga befarq bo'lmaydigan kadir bo'lib yetishtirib chiqarish.

Tatqiqot vazifalari: maqsaddan kelib chiqib, quyidagi vazifalarni hal etishga harakat qildi:

- O'lkamiz tarixini yoritishda, o'rganishda arxeologik, etnografik, topografik hamda muzey ekspanatlari orqali o'ziga xos xususiyatlarni oydinlashtirish.

- Jonajon vatanimiz tarixini ilmiy tahlili qilib bergan vatandoshlarimiz asarlarini ahamiyatini ko'rsatib berish.

- Mahaliy o'lkashunoslar asarlaridagi asosiy tushuncha va g'oyalarini mazmun – mohiyatini ochib berish.

¹ А.Набиев Тарихий ўлкашунослик. Тошкент "Ўқитувчи" 1996 Б – 20.

- Rus ziyolilar hamda mahalliy tarixnavis olimlarimiz o'rtasidagi o'zaro munosabatlar va ularning samarasi haqida ma'lumot berish.

- Mustaqillik yillarda o'lka tarixini o'rganishda yuqorida sanab o'tgan asarlarni qimmatliligi, foydali taraflarini bayon qilish.

Tadqiqot ob'ekti: Mazkur bitiruv malakavit ishimni tayorlaganda Turkiston regionini ya'ni xonlik va amirlik ta'sarufidagi shahar, qishloqlar tadqiqot ob'ekti qilinib olindi.

Talqiqot natijalarining amaliy ahamiyati: Mazkur bitiruv malakaviy ishi hozirgi davrda milliy o'zligimizni anglash va qadriyatlarimizning tiklanishiga yordam beradi. Bu ishimiz materiallaridan etnologiya bo'yicha maqolalar yaratishda o'quv yurtlari, shuningdek, kasb-hunar kollejlari ta'sil olayotgan o'quvchilar maxsus kurs va seminarlar o'tishda xamda keng jamoa orasida foydalanish mumkinligi maliy ahamiyatini tashkil etadi.

1. O'lkani o'rganishning tarixiy ahamiyati.

O'lkani o'rganish, tahlil qilish har bir fuqaroning insoniylik burchlaridan biridir. Shu bois shu o'lkada yashayotgan har bir fuqaro vatanini sevish, o'rganish, diliga jo etishdan ham muqaddasroq burch bo'lmasa kerak. Zero, yurtboshimiz aytganlaridek, tarixni bilmasdan turib, kelajak poydevorini mustahkam qura olmaymiz.² Shunday ekan o'z vatanimiz, o'z xalqimizning tarixini bilish biz yoshlar uchun mas'uliyatli burchdir.

O'lkani, jonajon vatanimizning tarixini, manaviy, madaniy merosimizni anglab etishda o'lkashunoslikning ahamiyati kattadir.

O'lkashunoslik mahalliy aholi tomonidan o'z ona yurti hisoblangan muayyan o'lka, shahar yoki qishloq va boshqa territoriyalarni har tomonlama o'rganish, o'z o'lkasining tabiatini, aholini, xo'jaligini va madaniyatini o'rganishga xizmat qiladi.

O'lkashunoslik bu masalalarning hammasini bir-biri bilan bog'liq holda soha o'lkashunosligi geografiyaga, tarixga, etnografiyaga, arxeologiya toponimika muzeyoga oid masalalarni tahlil qiladi va shular asosida o'rganadi.

O'lkashunoslikning asosiy usuli o'z o'lkasi haqidagi bilimlarni oshiradigan ma'lumotlar va moddiy madaniyat buyumlari va qazilmalarning namunalari va boshqa ma'lumotlar to'plashdan iborat. Bunday ma'lumotlarni to'plashda yuqorida aytganimizdek, arxeologiya, etnografiya, toponimik va boshqa moddiy hamda yozma manbalarning qiymati kattadir. Ayniqsa o'lkamiz tarixini o'rganishda etnografik falklor ma'lumotlar, materiallarning o'rni beqiyosdir.

Etnografiya - xalqlarni o'rganuvchi fandir. Etnografiyaga olimlar tomonidan turlicha talqin qilinadi. Masana: "etnos" - xalq, "lagos" - so'z, tushuncha, fikrlash deb ham e'tirof qilinadi.³

Kengroq qilib aytadigan bo'lsak, etnografiya xalqlarni kelib chiqishi (etnogenezi), ularning madaniyati, urf-odatlarini, marosimlari, xo'jalik turlari o'zaro aloqa va munosabatlarini o'rganuvchi fandir.

² Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Т.: Шарқ. 1996-Б 8.

³ Jabborov I. O'zbek xalqi etnografiyasi T. "O'qituvchi" 1994 –Б 8.

Ba'zi mamlakatlarda shu ma'noda "etnologiya" atamasi bilan bir qatorda "madaniy antropologiya" va "xalqshunoslik" nomlari ham uchraydi.⁴

Ma'lumki, etnografiya fani o'lamizga ruslarning kirib kelishi bilan paydo bo'ldi desak xato bo'lmaydi. Shunchaga tarixnavisligimiz o'zgacha bo'lib, tarixiy manbalarimizga xalq xo'jaligiga oid tilshunoslikka doir qisman ma'lumotlarni uchratishimiz mumkin. Misol tariqasida Mirzo Ulug'bekning "tarixiy-arba' ulus", Abulg'ozining "Shajarayi turk", Hofiz Tanish Buxoriyning "Abdullanoma" va boshqa mutafakkirlarning asarlarida etnik tarixdan lavhalarni uchratishimiz tabiiy. Jumladan, ular o'z asarlarida turkiy qabilalarning nomlarini va ularning kelib chiqishi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarini izohlab o'tishga harakat etganlar. Ammo ularning fikrlari ko'p jihatdan ilmiy isbotini topmadi.

Ruslar o'lkamizni bosib olmasdan oldinroq ham etnografik ma'lumotlar to'plana boshlangan edi.

Shu jumladan xIX asrning birinchi yarmida N.N.Murav'ev, A.F.Neari, N.V.Xanikov, G.I.Danievskiylar olib borgan kuzatishlarida Turkiston xalqlari, shu jumladan O'zbekistonda yashagan qavmlarning etnografiyasini o'rganishda va ilmiy tahlil qilishda dastlabki qadamlar qo'yildi.⁵

Ular o'z kundaliklarida bu o'lkadan topilgan etnografiyaga oid ma'lumotlar to'plab bordilar. Hatto ularning ayrimlari shunga doir asarlarini chop ettirdilar. Albatta ularning barchasi ilmiy maqsadda emas, balki harbiy maqsadda foydalanish mo'ljallangan edi.

1819-1820 yillarda Xiva xonligiga sayohat qilgan kapitan N.N.Murav'ev o'z taassurotlarini asar tarzida keltirib katta ish qilgan. N.N.Murav'ev asarlarining ba'zi boblarida o'lkamiz tabiati, diniy e'tiqodlari, urf-odatlar, ma'rifati, kiyim-kechagi, uy-ro'zg'or, xo'jaligi, urug'-aymog'i kabi etnografiyaga oid sof qiymatli ma'lumotlarni keltirgan.

⁴ Jabborov I. O'zbek xalqi etnografiyasi Toshkent "O'qituvchi" 1994 –B 8.

⁵ А.Набиев. Тарихий ўлкашунослик. Тошкент "Ўқитувчи" 1996-Б 100.

Uning ma'lumotiga ko'ra o'lkada yashaydigan odamlar ko'pchiligi qora uylarda yashaganlar, ammo urug'doshlari o'troq katta paxsa devor bilan o'ralgan uylarda yashaganlar⁶.

Keyingi 1840-1850 yillarda etnografiyani ko'p va yanada izchil o'rganish davom etdi. Turkiston xalqlarining etnografiyasini ilmiy jihatdan o'rganishda o'z hissalarini qo'shgan aka-uka Nikolay va Yakov Xanikovlarning xizmati kattadir.

Yakov Xanikovning 1851 yilda nashr qilingan "Orol dengizi va Xiva xonligi xaritasiga izohnoma" asarida etnografiyaga va moddiy ashyolarni o'rganishga alohida e'tibor berilgan. Chor Rossiyasi mustamlakasi davrida ham o'lkani o'rganish davom etdi. Etnografiyaga oid muammolar ijobiy hal qilina boshlandi.

Ilg'or rus olimlari va o'lkani o'rganuvchilar mustamlakachilik rejimining og'ir sharoitida mahalliy ma'murlarning jaholatiga bardosh berib, tojik, turkman, qirg'iz, shu jumladan Turkiston xalqlarining iqtisodiyoti, tarixi, turmush va madaniyatini o'rganish borasida hormay-tolmay tadqiqotlarini davom ettiradilar.

Mustamlaka ma'muriyati Turkiston xalq ommasining milliy ongini o'stirishga yordamlashishini, o'stirishni aslo ma'qul ish deb bilmasdi, aksincha mahalliy xalq ommasi o'rtasida tarixiy bilimlarni o'rganishga ahamiyat berilsa, ular diqqatini qadimgi zamon yodgorliklarini o'rganishga qaratilsa, chorizmning mustamlakachilik siyosatiga faqat zarar etkazishi mumkin, deb qo'rqardi.

Lekin Turkiston hududlarida Rossiya hukmronligining o'rnatilishi ularning umum Rossiya iqtisodiy taraqqiyoti yo'liga qo'shib yuborilganligi munosabati bilan turmushning ilmiy tadqiqotlar o'tkazishni taqozo qilardi. O'lka tarixini tadqiq qilish kun sayin oshib bordi. Shunday tadqiqotchilardan biri rus tabiatshunosi va sayyohi A.P.Fedchenko (1844-1873). U Turkiston tabiatini o'rganishda katta rol o'ynadi. U Farg'ona vodiysi bilan Oloyni birinchi marta tekshirib chiqdi. Oloy orasidagi tizma tog'lar va uning eng baland cho'qqisini ochish sharafiga muyassar bo'ldi.

Fedchenko Oloy tog' tizmasi bilan birga Zarafshon vodiysi va Qizilqumni ham o'rganib chiqdi. Tekshiruvlar natijasida o'lkamiz xo'jaligi, tuprog'i, moddiy

⁶А.Набиев. Тарихий ўлкашунослик. Тошкент "Ўқитувчи"1996.-Б 101.

va ma'naviy madaniyatini, etnografik ashyolarini hamda ularning to'planishiga diqqat e'tiborini qaratdi. Bunday etnografik tadqiqotlarni bu sohada ish olib borgan olimlarning bir nechtasini sanab o'tsak bo'ladi.

Biroq bu sohani o'rganish, tadqiq qilish oxiriga etkazilmagan.

Etnografik ma'lumotlar shu jumladan etnografik tarixga oid bajarilishi kerak bo'lgan ishlar ko'pdir. Etnografiyaga har bir urug' aymoqni kelib chiqishidan boshlab moddiy ma'naviyati, rasm-rusumlarini o'rganilsa, har biri alohida tadqiqot bo'lardi.

Masalan: O'zbeklarning motam marosimi ilmiy o'rganilmagan, dehqonchilik, o'lkamiz xo'jaligiga oid qimmatli ma'lumotlarni ilmiy tahlil qilish va xulosa yasash biz yoshlar va tarixchilar zimmasida deb o'ylayman.

Bundan tashqari o'lka tarixini o'rganishda toponimik ma'lumotlardan foydalansak, o'lkamizning tarixini o'rganishga yanada chuqurroq zamin yaratgan bo'lar edi. Toponimika geografik nomlar, kishilar ismini o'rganish, "zamin tili" deb atashadilar. Aniqrog'i toponimika yunoncha ikki so'zdan, ya'ni topos - joy va onoma (yoki onima) - nom so'zlaridan tarkib topgan.⁷

Toponimlar aniq tarixiy jarayon bo'lib u aholining ko'chishi, madaniy, iqtisodiy munosabatlari vujudga keladi, so'ng taqala boshlaydi. Toponimika jamiyatning muomala vositasi bo'lgan tilni, uning iqtisodiyotini, madaniyatini, urf-odatlarini va tarixiy taraqqiyotini o'rganish jarayonida o'sib, rivojlanaveradi.

Toponimikada ham, moddiy va ma'naviy yodgorliklar o'rganilganidek, oddiydan murakkabga, ya'ni o'lka tarixini bugungi kundan asrlar ichkarisiga kirib o'rganish zarur. O'z navbatida toponimik nomlar tarix uchun ham bebaho manbadir.

Bunday tadqiqotlar qilishning qiyinchiliklari ham bor. Toponimik materiallarni to'plashda o'sha joyda yashagan xalq ichidan topish muhimdir. Bunday toponimik nomlarni qariya ota-bobolarning bergan ma'lumotlari asosida o'rganish qimmatlidir. Ammo bunday tadqiqotlarni bir muncha orqaga ketishiga sabab bu qariyalarimizni hayotdan ko'z yumganliklaridadir.

⁷А.Набиев. Тарихий ўлкашунослик. Тошкент "Ўқитувчи"1996.-Б 22.

Har bir ma'lumotni asl manbadan o'qigan afzal bo'lganidek, toponimik, etnografik ma'lumotlarni ham o'sha joyda yashagan, ko'rgan, eshitgan kishilardan bilib olish afzaldir.

Toponimikada joy nomlari ibtidoiy jamoa tuzumi davrida kam bo'lib, keyinchalik aholi ko'payishi bilan qo'yilgan nomlar ham o'z navbatida boshqa nomlarga o'zgartirilib yuborilgan yoki vaqt o'tishi bilan butunlay yo'qolib ketgan.⁸ Bu jarayonni hozirgi vaqtda ham ko'rimiz mumkin. Savol tug'iladi nima sababdan joy nomlari, ismlar, ya'ni eski geografik joy nomlari egalladi?

O'tmishda yangi zamindor (er egasi) paydo bo'lishi bilan ko'pgina aholi eski nomlar o'rniga o'sha zamonda atalib kelgan nomlarni to'ldirib, aholi orasiga tarqalgan. Bu eski joy nomlarining takrorlanmasligi bilan unutilib yo'qolib borgan.

Toponimikaning ayrim toifalalari va tizimlari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni o'rganish yo'li bilan toponimlarni tavsiflash toponimik tadqiqotlarning asosini tashkil etadi.

Har bir mutaxassis toponimistlar o'lkaning tarixini har tomonlama yoritishda qismlarga (regional) tadqiq qilishga katta e'tibor beradilar. Bunda albatta mikro va makro toponimikani o'zaro taqqoslash zarur.

Bunday ma'lumotlarni yoritishda, qolipga solishda yuqorida aytganimizdek etnografiyaning xizmatlari kattadir. Chunki bu joy nomlarini o'sha joyda yashab istiqomat qilib kelgan xalqlar o'z turmush tarzlaridan kelib chiqib aytganlar. Toponimik tadqiqotlarni arxeologiya, etnografiya yordamisiz, to'liq va bexato yoritish qiyin. Bular sohalar bir-birining o'rnini to'ldirib boradi.

Toponimika vazifalarini aniqlar ekanmiz, ma'lum joyning geografik nomi, tarixi to'laroq, shu o'lkada yashagan xalqlar tarixi bilan bog'liq holda aniqlanishi uning asosiy maqsadi qilib olishimiz zarur.⁹

Bundan tashqari toponimikaga oid tadqiqot ma'lumotlaridan foydalanayotganda o'sha o'lka xalqlar tarixini tilini o'rganish, arxeologiya va etnografiyaga oid ma'lumotlarni hisobga olish maqsadga muvofiqdir. Buning

⁸ Qoraev S. Toponimika joy nomlari haqidagi fan. T. "Fan" 1980-B 3.

⁹ А.Набиев. Тарихий ўлкашунослик. Тошкент "Ўқитувчи"1996.-Б 132.

uchun har bir toponimik o'z o'lkasini sevadigan, tarixini chuqur biladigan etnografiya va arxeologiyadan xabardor bo'lishi kerak.

Geografik nomlarni, ularning kelib chiqishi va bularning tarixi bilan bog'liq holda o'rganish, taqqoslash yaqin vaqtlarda boshlangan XIX asr oxiri XX asr boshlarida bir necha olimlar toponimika sohasida samarali ishlar olib borganlar. Takidlab aytganimizdek, XIX asr oxirida toponimik tadqiqotlar ancha keng quloch yoydi. V.G.Shostokovich toponimika sohasida ayniqsa samarali ishlar qildilar.

Tadqiqotlarda bir necha o'nlab yosh olimlar ham toponimika sohasida samarali ishlar olib bordilar. Chunonchi, G.Nafasov "Qashqadaryo toponimikasi", SH.Qodirova "Toshkent mikrotoponimikasi" kabi bir qancha ilmiy ishlar qilganlar. Bu olimlar o'lkamiz tarixini nechog'li navqiron ekanligini yana bir bor e'tirof etishdi.

Turkiston, jumladan O'zbekiston toponimikalarini o'rganish ham uzoq tarixga ega. Respublika joy nomlarining kelib chiqishi tarixini va millat, elat, urug'-aymog' ellarining kelib chiqish tarixini (etnogenezeni) hamda geografiyaga doir atamalarni o'rganishda Ya.G'.G'ulomov, R.N.Nabiev, S.Ibrohimov singari olimlar o'lkamizning toponimikasini, tarixni o'rganishda samarali ishlar qilganlar.

Toponimikani o'rganish ma'lumot to'plashdan boshlanadi. Bu ish odatda tadqiqotlar, mikroray, qishloq, ovul hududida, keyinchalik ma'muriy rayon hamda viloyat va jonajon o'lka miqyosida amalga oshiriladi. Toponimik ma'lumot yig'ish ishini boshlashdan avval ma'lumotlarni qanday va qaerdan topish hamda kimlar bilan qanday mavzuda suhbatlar o'tkazishning hech bo'lmaganda taxminiy ish rejasi va dasturi ishlab chiqilishi shart. Mana shu reja va dastur asosida puxta tayyorgarlik ishlari olib boriladi. dala ishlarini tadqiq qilish mobaynida o'sha erda yashaydigan aholidan eshitgan hikoya, afsona va o'tmish haqidagi suhbatlarni hamda boshqa materiallarni muntazam yozib borishdan iborat bo'ladi.

Masalan: Qo'qon toponimikasi bu joyning nomi haqida turli-tuman ma'lumotlar bor. O'sha erda yashagan aholining aytishlaricha, shahar joylashgan hudud botqoqlik va qamishzorlardan iborat bo'lgan. U erlarda ho'kiz (yovvoyi cho'chqa) lar juda ko'p bo'lgan. SHuning uchun u erni cho'chqalar ya'ni

to'ng'izlar makoni - Ho'kkan deb ataganlar. Akademik A.N.Kenikov Qo'qon (Ho'kand) "Shmoliy shahar", "sershamol shahar" ma'nosida bo'lishi mumkin deb ta'kidlaydi.

"Boburnoma"da Xo'qon viloyati deb tilga olingan. V.V.Bartol'd shahar nomining adabiy jihatdan to'g'ri shakli Xo'jand bo'lib, Qo'qon jonli tilda talaffuz etilishidir, deb hisoblaydi.¹⁰ Sh asnoda toponimik ma'lumotlar to'planadi. Bunday toponimik ma'lumotlarga har bir shaxs o'z Vatani, o'lkasining tarixini yoritishda, o'rganishda muhim ahamiyat kasb etuvchi manba sifatida qaraydi.

O'lkamiz tarixini izchil yoritishda toponimik ma'lumotlar bilan birga arxeologik qazilmalarda topilgan moddiy ne'matlarga to'xtalib o'tmaslikning iloji yo'q. shu jonajon Vatanda yashayotgan har bir inson o'z ota-bobolari kimlarning ajdodlari, ular qanday hayot kechirganlar, mashg'uloti nima bo'lgan degan mavhum savollarga javob izlaydi. Qisqacha qilib aytganda, qadimgi davrni o'rganishga intiladi. Bularni yoritishda, ilmiy xulosaga kelishda albatta arxeologiyaga murojaat qiladilar.

Arxeologiya o'lkani o'rganish va tarixni yoritishda yordamchi fanlar qatoriga kiradi. Dunyo xalqlarining bir necha yuz ming yillardan beri davom etib kelgan va kelayotgan tarixi, o'tmishi bor.

Lekin shu uzoq tarixiy taraqqiyotning eng keyingi 5-6 minginchi yillaridan boshlab yozuv va asarlar paydo bo'lib, undan avval xalqlarda yozuv va yozma tarix bo'lmagan. Yozuv paydo bo'lgandan keyin ham ko'pgina voqealar yozilmay qolgan, podsholarning buyruqlari, ruhoniylarning diniy ma'lumotlari, xazinalarning hisob-kitoblari hamda turli urushdagi yozma manbalar va asarlar o'z zamonavsining ishlab chiqarish usullari va vositalarini, xalqning zahmatli mashaqqatlarini, o'y-fikrlarini etarlicha aks ettirmaganlar.

Chunonchi o'sha davr sharoiti yoki hukmdorlari bunga yo'l qo'ymaganlar. Demak, qadimgi shahar va qishloqlar qazib ko'rilganda, u erlardan qadim xalqlarning uy-joy qoldiklari, uy-ro'zg'or asboblari, zeb-ziynat buyumlari, e'tiqod yodgorliklari topiladi. Bu narsalar esa yozma tarixdagi ma'lumotlarga qaraganda

¹⁰ Xasanov X. O'rta Osiyo joy nomlari tarixidan. T. 1966 –B 17.

o'sha davr turmushini har taraflamava aniqroq yoritishga yanada imkoniyat yaratadi.

Yozma tarix paydo bo'lguncha o'tgan bir necha yuz ming yillik davr tarixini hamda undan keyingi o'lka tarixini to'la o'rganish zaruriyati o'sha davr xalqlaridan qolgan buyumlarni tekshirib, moddiy va ma'naviy hayotimiz nechog'lik boy ekanligini yana bir bor bilib olamiz. Bunda arxeologiyaning xizmati beqiyosdir.

Arxeologlar qazishma usuli bilan ish ko'radilar. Ayniqsa, yozuvlar paydo bo'lgandan burungi davr tarixini arxeologik qazishmalardan topilgan buyumlar to'ldiradi. Tarixiy ma'lumotlarga qaraganda, tarixnavislik Turkistonda juda qadimdan boshlanadi. Bu tarixnavislik arablar istelochilari mahalliy olimlarni yo'qotibgina qolmay, mahalliy til va mahalliy yozuvdagi asarlarni ham yo'q qilib, yondirib yuborganlar. Bunday manbalarning yo'q qilib yuborilishi arxeologiyaga murojaat qilishni taqozo qilmay qolmaydi.

XIX asrning ikkinchi yarmida turkiston Rossiya tomonidan bosib olingandan keyin bu o'lkaga kelgan har bir mutaxassis va savodli kishi qal'alar xarobasini sun'iy tepaliklari, shahar xarobalarini ko'rib, ularning tarixini surishtira boshladilar.

Bunday xarobalarni tekshirish jarayonida, hatto "xazina" izlab ba'zi tepaliklarni buzib yuborishgacha ham bordilar. Bular haqida Toshkentga chiqqan boshlagan gazeta va jurnallarga 1870 yillardagi shunga o'xshash talon-torojlarni ko'rimiz mumkin.

Bir guruh taraqqiyparvar rus ziyolilari-arxeologiya havaskorlari hozirgi tarix muzeyni tashkil etib, har joyda topilgan arxeologiyaga oid yodgorliklarni bu erga to'plashga kirishdilar. Bu borada ayniqsa, arxeologik olim V.L.Vyatkinning xizmatlari alohida tahsinga loyiqdir.

Rus ziyolilari buzib tashlangan Ulug'bek rasadxonasining izlarini topish uchun ko'p urindilar, nihoyat Samarqandda yashagan V.L.Vyatkin qadimgi voqealarni o'rganish asosida rasadxonaning o'rnini aniqladilar.¹¹ Arxeologik

¹¹ А.Набиев. Тарихий ўлкашунослик. Тошкент "Ўқитувчи" 1996-Б 256.

tekshirishda bu rasadxonaning g'ildirak shakldagi binosining kursisi, binoning buzilgan g'isht va naqshlari hamda rasadxonaning sakkizdan bir qismi topildi.

Bu qimmatli ma'lumotlar jonajon o'lkamizni, tarixini yoritishda qimmatli manba bo'lib sanaladi. Shu bilan birga arxeologiya havaskorlari qadimgi Samarqanddagi "Afrosiyob" tepaligida birmuncha qazishmalar o'tkazdilar. Havaskor o'lkashunoslar arxeologik, etnografik, toponomik, muzey eksponentlarini to'plab ilmiy yangiliklarga qo'l urdilar.

Shu jumladan, Mirzo Buxoriy, mirzo Abdullo, mullo Qosimov, Akrompolvon Asqarov va boshqa havaskor olimlar yodgorliklarini tarixshunoslik nuqtai-nazaridan o'rganish ishida tashabbuschi bo'ladilar. Bu haqda keyingi rejalarda to'xtalib o'tishni joiz deb bildik¹.

O'zbek xalqining tarixiy, madaniy va me'morchilik yodgorliklari jahon madaniy merosining tarkibiy qismi bo'lib, jahon taraqqiyotiga qo'shilgan g'oyatda katta ulushidir. Mana shunday muhim nadir qimmatli ahamiyatga molik bo'lgan moddiy va ma'naviy yodgorliklarning asori antiqalarni har tomonlama ilmiy va amaliy jihatdan o'rganishda va tahlil qilishda arxeologiya, etnografik, toponomik dalillarga asoslanib o'rganish, o'lka tarixining yanada chuqurroq tahlil qilishda olib kelishi muqarrardir.

Xullas o'lkamizning tarixini yoritishda arxeologik, toponimik materiallari bilan birga arxiv hujjatlari va muzey eksponentlarining ham salmog'i kattadir. Bunday tadqiqotlar o'lkamizning xo'jaligi, iqtisodiy munosabat, sinfiy kurash, xalq harakatlari, tariximizning ildizlarini ochib berishda asosiy o'ringa ega.

Bunday to'plangan o'lka materiallaridan o'quv-tarbiyaviy, ilmiy yangiliklar, tadqiqotlar olib borishda o'rinli va samarali foydalanib, yosh avlodning vatanparvarlik ruhida tarbiyalash kelgusi avlodga meros qoldirishni ko'zda tutadi.

O'lkashunoslik besh asosiy manbaga etnografiya toponimika, arxiv hujjatlari, arxeologiya hamda muzey materiallariga tayanib ish ko'radi.

¹ А.Набиев. Тарихий ўлкашунослик. Тошкент "Ўқитувчи"1996-Б 256.

Qishloq, rayon, shahar yoki viloyat hududining tarixini o'rganishda shu manbalardan birortasi ham diqqat – e'tibordan chetda qolmasligi lozim, bu siz o'lka tarixini mukammal o'rganib bo'lmaydi.

O'sha besh manbadan biri bo'lgan arxiv hujjatlari to'g'risida gap borganda, arxivlarda tashkilotlar, xulosalar, korxonalar, jamoa va davlat xo'jaliklarining, ayrim shaxslarning ko'p yillik faoliyati haqida ma'lumotlar, hujjatlar saqlanadi. O'lka tarixini o'rganishda bu hujjatlarning ahamiyati kattadir. Arxiv hujjatlarining qidirib topish, ular ustida ishlash va olingan ma'lumotlarni o'rganib, hayotga tatbiq qilish unumli foydalanish, biz yosh tarixchilar zimmasidadir.

Arxiv hujjatlari yozma va og'zaki shaklida bo'lishi mumkin. Og'zaki tarixiy har xil texnika vositalari bilan yozib yoki tasvirlab olinadi. Hujjatlar maxsus joylarda, ya'ni arxivlarda sohalarga ajratilgan xronologik sanalarga, qimmat va ahamiyatiga qarab tartibga solingan holda saqlanadi.

Toshkent O'zbekiston Respublikasi markaziy davlat arxivi saqlanayotgan qimmatbaho hujjatlarning soni va mohiyati jihatidan O'rta Osiyo respublikalari Markaziy davlat arxivlari ichida eng yirigidir. Unda XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab to hozirgi kunimizgacha bo'lgan juda ko'p sonli hujjatlar saqlanmoqda. Turkiston general – gubernatorligiga qarashli hozirgi O'zbekiston, Turkmaniston, Tojikiston, Qirg'iziston va qisman Qozog'iston Respublikalari huzuridagi viloyatlar u'ezdlar va lostlar, muassasa va korxona hamda tashkilotlarning tarixiy faoliyatiga doir barcha hujjatlar mana shu Markaziy arxivda mujassamlashtirilgan.

Bu hujjatlardagi Turkistonda chor hukumatining olib borgan mustamlakachilik siyosati rus xalqi bilan O'rta Osiyo shu jumladan o'zbek xalqining madaniy aloqalari, chor Rossiyasining boshqaruv tizimi tashkilotlarning faoliyatlari va boshqa xilma – xil va boy materiallar Turkiston aholisi tarixini har tomonlama, chuqur o'rganishda bebaho durdona bo'lib xizmat qiladi. Arxivda Turkiston o'lkasidagi chor hukumatining ma'muriy tashkilotlari faoliyatiga doir hujjatlar to'lig'icha saqlangan. Bu hujjatlarning ko'pchiligi aholini turmush tarzi agrar masalalar amaldorlarning boshqaruvi va shu bilan barcha chor hukumatining

ma'muriy tashkilotlari faoliyatiga doir hujjatlar to'lig'icha saqlangan. Bu hujjatlarning ko'pchiligi chorizimning Turkistondagi mustamlakachilik siyosatiga oid bo'lib unda mahalliy aholining ayanchli ahvoli. Bu davrdagi chor hukumatining tazyiqlari jabr zulmlar, hukumat a'zolarining hatti – harakatlari chorizim va uning mayillariga qarshi xalqning qo'zg'alishi joylarda xalq ommasining milliy ozodlik uchun olib borgan kurashlari, suvsizlik qurg'oqchilik va huquqsizlikka qarshi kurashlarini o'qib guvohi bo'lishimiz mumkin.

Darhaqiqat bu arxiv hujjatlarini ko'rib shuni guvohi bo'lishimiz mumkinki, xalqimizni, orzu – istaklari ularning turmush tarzi o'zaro munosabatlari, xalqning bitta maqsad yo'lida birlashuvlari va uning natijalari haqida ilmiy tasavvurga ega bo'lishimiz kerak¹.

O'rta Osiyo xonliklari bekliklari diniy boshqarmalari faoliyatiga doir hujjatlar deyarli yo'q bo'lib ketgan. Buning asosiy sabablari notinchlik, urush janjallar hisoblanadi. Ayrim mavjud materiallar esa o'lkamizni Rossiyaning bosqinchilik yurishlari jarayonidagi harbiy to'qnashuvlar davrida yo'q qilib yuborilgan.

Shu jumladan akademik V.V.Bartol'dning so'zlariga qaraganda, bosib olingan joylardagi xonliklarning kutubxonalari va arxiv hujjatlarining saqlab qolish uchun hech qanday chora – tadbir ko'rilmagan. Umuman ular O'rta Osiyo xalqlarining madaniyati va tarixiy yodgorliklarining saqlab qolishga etarli ahamiyat bermaganlar. Chunki manfaatdorlik bu arxivlardan kuzatilmagan. Tarixchi A.I Dobrosmislovning yozishicha, turli arxiv ishlari nazoratsiz qolgan. Faqat birgina general – gubernator konselyarasi arxivi ko'ngildagidek olib borilgan xolos.¹

Hozirda saqlanayotgan Markaziy davlat arxivida saqlanayotgan bu bebaho hujjatlar XIX asrning ikkinchi yarmidan to XX asrning boshlarigacha bo'lgan O'rta Osiyo shu jumladan o'zbek xalqlari tarixini, ayniqsa jonajon o'lka tarixini o'rganishda katta manba bo'lib xizmat qiladi.

¹ А.Набиев. Тарихий ўлкашунослик. Тошкент “Ўқитувчи”1996-Б 256.

Arxiv ishlari uni tartibga solish va rivojlantirish XX asrning birinchi yarmidan boshlab to'liq, amalga oshirila boshlandi. Markaziy davlat arxivi fondlarida ham tatqiqotchilarning qo'li tegmagan ma'muriyatlar bor. Turkiston xalqlarining 1918 – 1920 yillarida olib borilgan milliy ozodlik va erk uchun kurashlari Turkiston sho'rolar hukumatining Turkiston muxtoriyaini tan olmaganligi, uni ag'darib tashlashgani va yo'q qilganligi, milliy mustaqillik uchun kurash olib borgan. Qo'qon, Andijon, Marg'ilon, Namangan kabi shaharlar aholisining sho'rolar tomonidan shafqatsizlik bilan qirib yuborilganligi milliy siyosatni amalga oshirishda sho'rolar hukumatining yo'l qo'ygan xatolari natijasida birgina Farg'ona vodiysida 180 dan ortiq shaharlarning shafqatsizlik bilan yo'q qilib yuborilganligi haqida juda qimmatbaho hujjatlar mavjud.

Bu arxiv asl ma'lumotlarga tayanib xalqimizni orzu – umidlarini, xonliklardagi ijtimoiy, siyosiy – iqtisodi va boshqa muhim jihatlarini o'rganib, tushunib olamiz.

O'lkashunoslikning asosiy manbalaridan biri hisoblangan arxivshunoslik Vatan tarixini shu jumladan, o'z o'lka tarixini har tomonlama va chuqur o'rganish orqali har bir shaxsni fikrlash dunyoqarashi hamda tarbiyaviy jihatlarining oshishiga olib keladi. Yosh avlodni esa vatanparvarlik, ajdodlarimiz tomonidan bizgacha yetib kelgan ilmiy merosini o'rganishga bo'lgan qiziqishini ta'minlaydi.

O'lkamiz tarixini o'rganishda muzeyshunoslik va muzey eksponatlarning o'rni beqiyos.

Shuni aytib o'tishimiz joiz deb o'ylaymanki muzeylar XIX asrga qadar antik davr balki ilk o'rta asrlar tarixini o'rganish muzeylar bilan bog'liq edi. Chunki aynan shu yerlarda zaruriy manbalarning asosiy qismi mavjud edi. Keng tarixiy profildagi muzeylarning tashkil topishi burjuaziyaning iqtisodiy va siyosiy mustahkamlanishi davriga to'g'ri keladi.

Ko'plab mustamlaka xalqlarining milliy mustaqillik, milliy o'zligini saqlash va vatan oldirish uchun kurash bu xalqlar tarixini saqlovchi va namoyish qiluvchi muzeylarga bo'lgan ijtimoiy ehtiyojni vujudga keltirdi.

Azaldan o'lkamiz tarixiga qiziqib, uning moddiy va ma'naviy olamiga bo'lgan e'tibor yanada kuchaya borgan. Muzeylar faoliyatida ana shu boy ma'naviy va moddiy boyliklar, madaniy yodgorliklar namoyishi va ilmiy tahlili asosiy o'rinni egallaydi. Muzyeda namoyish qilinayotgan har bir eksponat, hoh u qimmatbaho metal yoki toshdan ishlangan bo'lsin, goh amaliy san'atning yorqin namunasi bo'lsin, yoki ma'naviy merosning betakror yorqin qirralari bo'lsin, umumxalqning o'tmish hayoti, tafakuri, iste'dodi, iqtidorlardan darak beradi.

Muzeylar tarixiy xotirani jonlantirish omili bo'lib xizmat qilar ekan, unda namoyish etilayotgan materiallar ommaviy dalil sifatida o'z davriga xos xususiyatlarni aks ettirganligi bilan o'sha davr madaniyati san'atidan beradigan xabari bilan juda qimmatlidir. Ular xalqimizning yuksak rivojlangan madaniyati, adabiyoti, san'ati hamda ma'naviy dunyoqarashga asoslangan xususiyatlari bilan tomoshanbin e'tiborini qozonadi. Unda bevosita shu buyumlarda aks etgan joziba, seyr, geometrik aniqlik, kimyoviy barkamollik, qurilish – arxitektura inshootlariga nisbatan inson aqlini lol qoldiradigan bir ta'sirini uyg'otadiki, bu uning beixtiyor faxrlanishi, qoyil qolish va undan o'rnak olib yangi san'at asarlarini yaratish sari ilhom uyg'otadi¹.

Yurtimizga Ruslarni kirib kelishi bilan bizning asori – atiq buyumlarimizni o'z yurtlariga hattoki shaxsiy buyumlari sifatida qarab kelganlar.

Masalan XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib Xiva xonligining saroyi talon – taroij qilindi. Xonning shaxsiy 200 ta pul yasaydigan qolib 25 tilla va kumush xon muhri 200 dan ortiq qadimiy tangalar behisob qimmatli toshlar va zargarlik buyumlari Peterburga jo'natilgan. Qo'qon xonligi xazinachi qismati ham shunday bo'ldi. Hattoki xonlikdagi aholidan qimmatli va qiymatli nodir buyumlar tirtib olingan. Bu davrdan boshlab sekin asta markazlashgan shaharlardan arxeologiya etnografiya va antropologiyani sevuvchilar to'garagi tashkil etilib unga Barxol'dning shogirdi boshchilik qildi. 1899 yilda Andijon qo'zg'olonning sarkardasi Dukchi Eshon kutubxonasi musodara qilindi. Undagi 194 nodir qo'lyozma tezlikda Peterburgga jo'natildi. Rus tarixining namoyondalari

¹ Ильгиз Илалов. Музееведение. Ташкент “Musiq” 2006 – с 7

o'zlarining Turkistonda olib borgan ilmiy va yodgorliklarni to'lash ishlariga mahalliy aholi vakillariga tayanganlar. Biz o'rganilayotgan davrda turli sohaga va kompleks muzeylar tashkil qilindi. Shunday muzeylardan biri tarixiy muzey bo'lib o'tmishimizni gavdalandirishda va bu kolleksiyalarga nazar tashlab tariximiz ne chog'li navqiron ekanligini yana bir karra bilib olamiz. Bu davrdagi tarixiy muzeylar o'z sohasiga ko'ra ijtimoiy muammolarga jumladan jamiyat va tabiat tarixi va kelajakdagi ajdodlarimizni dunyo qarashini shakllantiradi. O'lkamizning o'tmishini, metodiy yodgorliklar – mehnat qurollari, harakatlantirish moslamalari, qurol – aslahalar, kiyim – kechaklar va hokazo buyumlar muzey kolleksiyasidan joy oladi. Bu buyumlarni o'rganish orqali boy tariximizni yanada boyitish va jahon hamjamiyati qatoridan joy olishi uchun yosh tarixchilar o'z ilmiy asarlari bilan hissalarini qo'shib kelmoqdi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak muzey va muzey ashyolari bizning boy ma'naviy madaniyatimiz va o'lka tarixini yoritishda asosiy vosita bo'lib xizmat qilib kelmoqdi

2. Mahalliy o'lkashunoslar asarlarida o'lka tarixining yoritilishi

O'zbek madaniyati, o'lka tarixini yoritishda mahalliy tarixchilarning, tarixiy asarlari alohida o'rin tutib, unda o'lkaning o'tmishi, tarixini yoritishda, xolisona ochib berishda muhim ahamiyat kasb etuvchi asarlar ko'p.

O'rta Osiyo Rossiyaga qo'shib olingandan keyin o'zbek xalqi rus xalqining madaniyati, fan va texnika yutuqlaridan bahramand bo'ldi. Ilm-fanga, madaniyat yutuqlariga bo'lgan qiziqish tufayli o'sha davr ilg'or ziyolilari rus tilini o'rgana boshladilar. Ikkinchi tomonidan o'ylab qaraydigan bo'lsak, o'z tili va rus tilini o'rganishga majbur bo'lgan edilar. Chunki rus jamiyatidagi iqtisodiy-siyosiy, ijtimoiy voqealardan xabardor bo'lish mustaqillikni qo'lga kiritishning dastlabki qadami edi.

Zokirjon Furqat, Avaz O'tar o'g'li, Sattorxon Fafforov hamda Hamza Hakimzoda Niyoziy kabi o'zbek xalqining ma'rifatparvar namoyondalari ana shunday ilg'or kishilardan edilar. Rus tili va ularning madaniyati bilan tanishi tarixiy manbalarda ko'rsatilishicha, bunday targ'ibot XIX asrning o'ttizinchi yillarida boshlanganligi e'tirof qilinadi. Bu davrgacha bo'lgan o'lka tarixini, mahalliy tarixchilarimiz asarlaridan bilib olishimiz mumkin.

Shulardan XIX asrning birinchi yarmida yashab ijod etgan buyuk olim, tarixshunos Hakimxon Ma'lumxon o'g'li o'z zamonasining iste'dodli tarixchi olimi, adibi bo'lib, uning "Muntaxabut tavorix" ("Tanlangan tarix") asari o'lkamiz tarixini XIX asr boshlaridan to Rossiya qo'shilgunga qadar bo'lgan tarixiy davrini yoritishga xizmat qiluvchi manbadir.

Hakimxonning "Muntaxabut tavorix" asari faqat tarixiy faktlarni ifoda qilish jihatdangina emas, balki XIX asrning birinchi yarmida yaratilgan birinchi badiiy memuar asar bo'lishi bilan ham e'tiborga sazovordir.

Hakimxon bu asarni o'z ko'zi bilan ko'rib, bo'rttirishlardan xoli holda bilganlarini atroflicha yoritishga harakat qilgan.

Hakimxon Ma'sumxon o'g'li 1806 yilning may oyida Qo'qon shahrida tug'ilgan. Uning otasi Ma'sumxon Farg'ona xonlari – Olimxon va Umarxon

zamonida saroyda yashab, mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotida faol ishtirok etgan.

Hakimxonning yoshligi yuksak sharotida o'tdi. U Umarxonning farzandi Muhammadalixon bilan birga o'sdi. Hakimxonning tarbiyasida uning otasi va adiba Nodirabegimning roli ham katta bo'lgan. Mohlaroyim unga onasidek mehribonlik ko'rsatib turgan. Shunisi aniqki, Hakimxon yoshligida qaerda va kimdan tahsil chiqarganligi haqida hozirgacha aniq ma'lumot yo'q.¹²

Hakimxon bu asarini yozar ekan, XIX asrning birinchi yarmida uchchala xonliklar mavjud edi. Hakimxon bu doiralar orasida o'zaro urush-talashlar, ziddiyatlar kuchaygan, feodat beboshliklar xonliklar o'rtasidagi nifoqlar ayniqsa avj olgan bir davrda yashagan. Ayniqsa, Qo'qon xonligida ichki vaziyat murakkablashib bormoqda edi. Hukmronlikni qo'lga olish borasidagi feodallarning tortishuv va o'zaro nizolarning ortishi oqibatida shahar va qishloqlarning talanishi, aholi yashaydigan joylarga o't qo'yilishi va shunga o'xshash mudhish voqealar xalqning tinkasini tobora quritmoqda edi.

Bu voqealarning shohidi bo'lgan Hakimxon o'sha zamonda "Odil" deb maqtalgan Qo'qon xoni Umarxonning (1820-1821) yilda O'ra tepaga yurish qilganligi va azob-uqubat bilan dehqonlarning etishtirgan g'allasiga beparvolik bilan o't qo'yganligi haqida shunday deb yozadi.

Umarxon askarlari ertasiga kechib O'ratepa ustidagi tog' tarafiga o'tib oldilar. Dehqonlarni qo'li bilan mehnat qilib, omoch haydab, qiyinchiliklar bo'lishiga qaramay donli ekinlar ekib kun kechirib kelayotgan edilar. Bu donli ekinlar bug'doy, arpa va boshqa ekinlar pishib etilgan bir paytda Umarxon farmoni bilan bu erlarga o't qo'yishni buyurdi.

Umarxonning farmonini bajarish uchun lashkarlar saf bo'lib, o'z xunrezligini amalga oshirishga kirishdilar. Ekilgan, pishib etilgan arpa, bug'doy, ziroat daraxtlarga shunday o't qo'ydilarki, hatto o't daraxtlar ham kuyub kul

¹² Hakimxon To'ra "Muntaxab tavorix" T. 1966 –B 6-8.

bo'lib, olamni o't iskanjasida qoldirdilar. Bu yong'in natijasida biror bir barg va daraxt qolgan kuyub kul bo'ldi.¹³

Bunday xunrezliklar, talofotlar tez-tez bo'lib turib xalqning tinkasini tobora qurutib borar edi. Xondan tashqari amaldorlarning o'zboshimchalik bilan ish yuritishlari oddiy xalq ommasini yanada qiyinchilik bilan hayot kechirishlariga majbur qilar edi. Masalan, xon amaldorlarni zulmlari, turli-tuman soliqlarning olinishi, harbiy xarajatlarning ko'payib ketishi, masjid, saroy qurish, ariq qazish kabi majburiy ishlar xalqning turmush darajasini yanada og'irlashtirish, ochlik-yalang'ochlikning ko'payishiga sabab bo'lar edi. Bunday adolatsizlik va jabr-zulmdan sabr kosasi to'lgan xalq tez-tez qo'zg'olonlar ko'tarib chiqar edilar.

Ammo bunday qo'zg'olonlar vahshiylarcha bostirilar edi. Bunday adolatsizliklarni Nodirabegimdek o'sha davrning peshqadam kishilari o'z ko'zi bilan ko'rib adolatparvar kishilar zulmat pardasini yorib maydonga chiqar edilar.

Ular o'zlarining she'riyati, tarixiy memuar asarlari bilan bu davrda sodir bo'layotgan jarayonlarni, hayotni, voqelikni haqqoniy suratda taqqoslashga intildilar. Hakimxon o'zining "Mutaxabut tavorix" asarida XIX asrning birinchi yarmida o'lkamiz tarixini, tarixiy voqealarni mumkin qadar atroflicha, to'g'ri yoritib berishga harakat qilgan.

Hakimxon Umarxon davridagi xalq bilan hukmdor, hukmdor doiralari hamda bu davrdagi ijtimoiy -iqtisodiy, siyosiy voqeliklar bilan birga uning o'g'li Muhammad Alixon (1822-1841) davrida bo'lib o'tgan voqealarni ham atroflicha batafsil yoritib o'tishga harakat qilgan. Bu asarda otasining vafotidan keyin Muhammad Alixon o'n etti yoshida taxtga o'tiradi.¹⁴

Bu paytda Qo'qonda o'zaro nizolar kuchayib ketib xalqning noroziliklariga sabab bo'ldi. Umarxon o'z hukmronligi davrida ma'lum feodal guruhlarining manfaatlarini himoya qilib, ehtiyotkorona siyosat olib borgan bo'lsa, Muhammad Alixon o'z hukmronligi davrida o'zaro ayshi-ishratga berilib ketdi. Shu tufayli ilgari saroyda ishlab kelgan amaldorlarning ba'zilarini qatl etar edi. Boshqaruv

¹³ Xakimxon To'ra "Muntaxabut tavorix" T. 1966 -B 8

¹⁴ O'sha asar.- B 6.

darz ketganligini davlat amaldorlari o'z vazifalarini suiiste'mol qilganligida hamda davlat boshqaruvi ishlarida faol ishtirok etib kelgan shaxslarning o'z vazifalaridan chetlashtirilganligini ko'rishimiz mumkin.

Masalan, davlatni boshqarishda adolatli yo'l-yo'riq ko'rsatib kelayotgan Hakimxonning otasi Ma'sumxonto'ra ham ishidan chetlashtirildi. Muhammad Alixon Qo'qon xoni bo'lgan paytida Hakimxonni To'raqo'rg'onga hokim qilib tayinlagan edi. Hakimxon qisqa muddat ichida bu joylarni obod qilib, aholi turmush darajasini, moddiy hayotini yanada yaxshilab bordi. Ammo Hakimxonni ham o'z vazifasidan olib, uni Rossiya territoriyasiga chiqartirib yuborish haqida farmon beradi.

Chunki Hakimxon hokim bo'lgan vaqtda xalqni ishonchini qozonib, o'lkani rivojlantirishga bir muncha bo'lsa ham o'z hissasini qo'shgan edi. Xon Hakimxonni lavozimidan chetlashtirganda To'raqo'rg'on aholisi o'z noroziliklarini bildirib o'tdilar. Bu esa muhammad Alixon Hakimxondan uning tarafdorlari qo'zg'olon ko'tarishlaridan xavfsiraganini, aqlli, tadbirli kishilardan cho'chiganini ko'rsatar edi.

Hakimxon shu bilan Qozog'iston orqadi Rossiyaga o'tib ketadi. U bu erda bo'lgan paytda Rossiyani iqtisodiy, madaniy hamda ma'naviy haqti bilan tanishadi. Xonliklarning ahvolini solishtirib ko'rib, xonliklardagi ahvolning achinarli holdaligini ta'kidlab o'tadi. U keyinchalik Msrga Arabistonning bir qancha qishloq, shaharlarida bo'lib, ularning tarixini, yashash turmush tarzini, hayotini o'rganib 1830-1831 yil Buxoroga qaytadi. Hakimxon safardan qaytgach, davlat ishlariga aralashmay, Shahrisabzda yashab katta tarixiy faktlarni o'z ichiga olgan "Muntaxabut tarix" asarini yozishni davom ettiradi.

Asarning boshlanishida Payg'ambarlarning afsonaviy tarixi va Evropa xalqlarining tarixi, mo'g'ullar hukmronligi, temuriylar davlati hukmdorlari haqida ham qisqa ma'lumot beriladi.

Yozuvchi ayniqsa, Buxoro va Qo'qon xonligining 18-19 asrlarda ro'y bergan voqealarining sabablarini ko'rsatib o'tishga harakat qiladi. "Muntaxabut

tarix" asarining keyingi ko'pgina sahifalari 18-19 asrning birinchi yarmida Qo'qondagi bo'lib o'tgan turli voqealar atroflicha yoritib o'tadi.

Hakimxon o'z asarida o'sha davrda yashab, mamlakat iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotida hormay tolmay ijod qilgan kishilar haqida o'z mulohazalarini bayon qiladi.

Masalan: Hakimxon bu davrda o'zining teran ijodi bilan xalq nazariga tushgan shoira Nodira hayot yo'li haqida ham fikr mulohazalarini bildiradi.

Nodirabegim shoir, haqgo'y adolat uchun kurashuvchi talantli shoira bo'lib, Hakimxon va Muhammad Alixonning tarbiyasida mas'ul shaxs bo'lgan. Uning she'rlari hayotiy farzda bo'lib, mamlakatda ro'y berayotgan voqelikni kamchiliklarini, xalqning orzu-umidlarini, istaklarini she'riy tarzda bildirmasdan, xolisona, xalqqa tushunarli xalqchil tilda yoritib berishga harakat qilgan. Hattoki, erkaklardan qolishmagan holda davlat ishlariga o'zining jonkuyarlighi bilan boshqalarga o'rnak bo'lgan.

Nodirabegim ismi haqida tarixiy va badiiy asarlarda turlicha fikrlar bildirilganini ko'ramiz. Hakimxon uning asli haqiqiy ismi Mohlaroyim ekanligini aytib o'tadi.¹⁵

Mohlar oyimning o'g'li muhammad Alixon, Sulton Muhammadxon va nabirasi Muhammad Alixonning Nasrullo jallod tomonidan o'ldirilganini, cheksiz azob-iztirobga tushgan Mohlar oyim amirga qarshi o'z g'azab va nafratini she'rlari orqali bayon qilgan.

Uning she'ri va la'natli so'zlaridan g'azablangan Amir Nasrullo uni ikki kanizagi bilan o'ldirtirishga hukm qiladi.¹⁶ Nasrulloning qassob ekanligini, unga insonlarning hayvonchalik qadr-qimmatini yo'qligini Nodira ham tasdiqlaydi.

Hakimxon o'z asarida o'sha davrdagi hayotiy voqealarni mumkin qadar bo'rttirishlarsiz, kengroq yoritib berishga harakat qiladi. "Muntaxabut tavorix" asari 1843 yil 23 may kuni muallif tomonidan to'liq holda yozib tugatilgan.

¹⁵ Xakimxon To'ra "Muntaxabut tavorix" Toshkent. 1966 -B16

¹⁶ O'sha asarda- B 8

Hakimxon shoira Nodirabegimning hayotiga oid ayrim voqealar haqida ma'lumot beradi-yu, ammo uning ajoyib ijodi va ijtimoiy faoliyati to'g'risida juda kam fikr yuritadi. Buning sababi birinchidan yozuvchi bu asarida asosan, mamlakat tarixini, ijtimoiy vaqtisodiy sharoitini yoritish masalasini o'z oldiga vazifa qilib qo'yganligi bo'lsa, ikkinchidan Nodirabegim ijodining kamolotga erishgan payti mamlakatning ijtimoiy, madaniy hayotda qatnashgan vaqti, Hakimxon chet ellarda yurgan paytiga to'g'ri kelganligini ko'rishimiz mumkin. Shunday bo'lsa ham Hakimxon Mohlar oyim haqida bergan ma'lumotlari juda qimmatli materiallardir.

Hakimxon tomonidan yozilgan "Muntaxabot tarix" asarining qimmatliligi shundaki, o'sha davrni, o'lkamiz hayotida ro'y bergan voqelikka to'g'ri baho berilganligidadir.

Xullas, o'zbek xonliklaridagi madaniy va ma'naviy hayotni "Muntaxabot tarix" asari orqali yana bir karra bilib olishimiz mumkin. Yana shunisi ahamiyatliki, Rossiya va O'rta Osiyo xalqlari o'rtasidagi munosabatlarga doir qiziqarli ma'lumotlar keltiradi.

O'lka tarixini yoritishda asos bo'lib xizmat qiluvchi manbalardan yana biri Ibratning "Tarixi Farg'ona" asari bo'lib, bu qo'lyozma asari o'lkamizni o'rganishda, tarixiy-madaniy ahamiyat kasb etuvchi muhim manbalardan biri hisoblanadi. Ishoqxon Junaydilloxo'ja o'g'li Ibrat 1862 yili Namangan viloyatining To'raqo'rg'on qishlog'ida tilshunos, ma'rifatparvar oilasida dunyoga keladi. U ilk ma'lumotini onasi Huribibidan oladi. So'ng Qo'qondagi Muhammad Siddiq Turqotar madrasasida davom ettiradi. Uning qiziqishlariga ustozlari va madrasada ta'lim olayotgan toliblar juda ham katta baho beradi.

1887-1892 yillarda u Istambul, Safiya, Afina, Rim shahar, davlatlarda bo'lgan. Keyingi uch yil mobaynida Hindistonning Bombay va Kalkutta shaharlarida yashagan. Bu mamlakatlarda bo'lgan vaqtida arab, fors, ingliz, hind va urdu tillarini mukammal o'rgangan hamda gapira olgan. Bu joydagi aholi bilan uzviy bog'liq olda ularning madaniyati, o'ziga xosligini o'rganib, ilmiy salohiyatga ega bo'lgan.

Safardan qaytgach o'z ona vatani qishlog'ida yangicha usuldagi maktab ochib bolalarga saboq bera boshlagan. Ibratning eng katta xizmati xat-savodsiz kishilarga maktablar ochishi, shu maktablarga o'qituvchilar tayyorlashga, xotinqizlarni ilm-ma'rifatga jalb qilib jamiyatga o'z o'rinlariga hamda teng huquqli shaxs bo'lib kamol topishiga faol ishtirok etgan. Chunki o'lkani har jabhada rivojlanishi taraqqiyoti uchun ilmiy bilimlarga ega bo'lgan shaxslar zarur edi.

Ibrat "Turkiston viloyati gazetasi", "Sadoi Turkiston", "Sadoi Farg'ona" gazetalarda she'rlari bilan chiqib turgan.

Ibrat she'riy devondan tashqari 14 ta tilshunoslik adabiy va ilmiy tarixiy asarlar yaratgan. Shunday asarlardan "Jome' ul - xatut" ("Xatlar majmui") asari bo'lib, lotin, yunon, slavyan, xitoy, hind va ayniqsa arab yozuvining kelib chiqishi va rivojlanish tarixi haqida bu tilda suhbatlashadiganlar uchun qimmatli ma'lumot bergan.

Bundan tashqari xalqimiz shu jumladan tarixini, shahar, qishloqlarining joylashuvi, o'lka toponomikasiga oid qimmatli manba "Farg'ona tarixi"dir. Biz hozirda katta tantalar bilan nishonlab kelayotgan shahar, joy nomlarini nechog'lik navqiron ekanligini bu asar orqali bilib, anglab olishimiz mumkin.

"Farg'ona tarixi" asari 1916 yilda yozib bo'linib, Ibrat ushbu asarni qayta ishlash niyatida uni nashr ettirmagan. Shuning uchun ham bu asarda ayrim kamchilik va nuqsonlar uchraydi. Aymmo bu kamchiliklar bu asarning qiymatini tushira olmaydi. Umuman bu asar mazmun jihatidan voqealar to'g'ri bayon etilgan.

Har bir inson biror narsani o'rganib olishi uchun kitobga murojaat qilganidek, har bir kishi o'lkasining o'tmishini, moddiy va ma'naviy olamini o'rganish uchun tarixga yoki asl manbaga murojaat qiladi.

Chunonchi Turkiston o'lkasida Farg'ona deb yuritilgan joy bo'lsa ham kim tomonidan bunyod etilgani hech kimga ma'lum bo'lmay, Farg'ona ismi bilan atay boshlaganlar.

Ibratning "Farg'ona tarixi" asarida aytilishicha, Farg'onani barpo etgan kishi faylasuf bo'lgan ekan. Bu kishi Afrosiyob turon shohining ulamolaridan biri edi.

Firdavsiyning "Shohnoma"sida aytilishicha, Afrosibning o'g'li Qoraxon barzu degan Eron pahlavoniga asir tushib qolganida Afrosiyob o'z o'g'lini qutqarib, himoya qilish uchun Farg'onaga kelganini va Barzudan o'g'lini qutqarganligini aytib o'tadi. Shu nuqtai nazardan u shaharning yoshi 2500 yillarga yaqinligi aniq.¹⁷

Chunki bu shahar Qubod, Afrosiyob, No'shirvan va Iskandarlardan qolgan eski shaharligi ma'lum.

Farg'ona shahri deb nom olishdan oldin bu erni turli nomlar bilan atashib kelganlar. Masalan, Turkiston, Saryom, Talos, Andijon va boshqa tanonimlar bilan atab kelganlar. Ibratning ma'lumotiga qaraganda, Farg'ona shahri qurilmasdan oldin barpo bo'lgan shahar Qubo bo'lgan ekan. Keyinchalik No'shiravon hukmronlik vaqtida ko'pgina erlarni obod qilib, u joylashgan shahar poytaxti Axsikent deb yuritilgan.¹⁸

Keyinchalik hukmdorlik Turon shohi Afrosiyob davriga to'g'ri kelib, u turon zaminining ko'pgina erlarini obod qilib, yo'llarni tuzatib, ariqlar chiqari, dehqonlarning og'irini engil qilganini, ko'priklar qurib shaharlar va uning atroflarida ko'kalamzorlashtirish ishlari olib borilgan. Afrosiyob xalqi uchun jonini ham fido qilishga tayyor bo'lgan. Uning hukmdorligi davrida Eronlik bilan urushlar turib, bu qonli urushlar natijasida Turon va Eronlik qo'shinlaridan ko'plab kishilar ham o'lganlar. Afrosiyobning o'zi ham ko'p talofotlar ko'rib, podsholikdan ajralib, sarson-sargardonlikda kezib yurib, oxir-oqibatida Jayxun daryosi bo'yida askarlar tomonidan ushlab olinib Kayxusrav huzuriga olib boriladi va uning buyrug'i bilan qatl ettiriladi.

"Shohnoma", "Ravzat us-safo"da yozilishicha, Afrosiyob Turon shahri bo'lib, go'zallikda tengi yo'q ekanligi aytiladi. Bu erlarda otashparast mo'g'ullar shu manzillarda hukmron bo'lib, xarob bo'lib borayotgan xalqning imorati deydilar. Bu joylar tarixiy manbalarda hamda "Farg'ona tarixi"asarida e'tirof etilishicha, Afrosiyob va uning xalqlaridan qolgan.

¹⁷ Мерос.Ибрат "Фаргона тарихи" "Тошкент "Камалак".1991-В277.

¹⁸ Уша асар - Б 279.

Chunonchi, Kosonda mo'g'niy ko'ragoni bo'lib, u qalin devor va g'isht bilan terilgan holda, ikki ming yildan buyon turib, hali ham bu imorat o'z salobatini yo'qotmagan.¹⁹ Bu territoriyalarda so'g'dlar ham istiqomat qilib kelganlar. Bu qovealar Farg'ona xalqiga yodgorlik bo'lib kelmoqda.

Farg'ona shahri Iskandar Rumi, Qubodu, Afrosiyobdan qolgan bir go'zal shahardir. Iskandar uzoq sharqqa yurish qilgan chog'ida bu erga Farg'ona bahodir degan kishini qo'yib ketgan ekan. U kishi Farg'onani bunyod qilgan ekan.

Ammo "Razvat us safo"da aytilishicha, No'shiravonning otasi Qubod podshoh o'limidan oldin Turkistonning taqdirini o'g'liga topshirib, Farg'onaning aksariyat erlarini u obod qilgan ekan. Bu o'rinda Farg'onaning poytaxti Qubo bo'lgan. Ba'zi paytlarda tabiiy shart-sharoitarningning o'zgarishi natijasida Qubodan poytaxt Axsikentga ko'chirilgan.

Bu asarda Farg'onaning obodonlashtirilganligi turli shahar yodgorliklari haqida ham qimmatli ma'lumotlar bor.

Chunonchi, Farg'onaning tabiati iliq bo'lib, hosildor erlar ko'p bo'lgan. Bundan tashqari bog'lari ne'matlarga to'la, havosi toza, mozorlari obod, tog'lari ko'pligi Farg'ona aholisining hayot kechirishi yaxshiligini ko'rsatib turadi.

Qutayba ibn Muslimning mozori ham Farg'onadaligi ta'kidlab o'tiladi. Lekin "Tabaqati Toqiy"da aytilishicha, Farg'onada 535 hijriy yilda (1141 y) katta zilzila yuz berib, o'sha paytdagi Farg'ona poytaxti bo'lgan Axi shunday vayron bo'lganki, necha-necha minglab odamlar imoratlar ostida qolib ketganlar. Shunisi ajablanarliki, birinchi kunning o'zidayoq etmish marotaba qimirlagani va bu silkinish olti oygacha davom etganligi bayon qilinadi. Bu noxush er silkinish ko'plab qurbonlik va obod shahar, qo'rg'onlarni vayron bo'lishga olib keldi.

Farg'onaning qo'hna shaharlari ko'p bo'lib, bulardan eng ko'rkami Qubo va Axi bo'lgan. Bu shaharlar har bir podsholik davrida bir joy poytaxt, biri shahar bo'lib kelgan.

Qubod vafotidan so'ng No'shiravon toj kiyganda hamma kishilar xursand bo'lganlar. Podsholikning boshlanishi bilan mamlakatlarni birlashtirishga, o'zaro

¹⁹ Мерос.Ибрат "Фаргона тарихи" "Тошкент "Камалак".1991-В277.

birdamlikka, birodarlikka chaqirgan. Bu voqealar haqida "Tarixi Tabariy"ning 3-jildida aytib o'tilgan.²⁰ Muhammad alayhis-salomning tavalludlari No'shiravon hukmronlik qilgan vaqtida to'g'ri kelgan ekan.

Iskandar zamonida Forsistondan muhojir bo'lib kelgan bir kishi u dehqon bo'lib, halol mehnati bilan shuhrat qozongan edi. U podshohning huzuriga xalqning istagini bayon qilish maqsadida arz bilan boradi. Arzini aytish oldidan u yonidagi pishgan nondan Iskandarga tutadi. Podsho Iskandar arzingiz nima, deb so'rganida biz turgan joyimizni shahar qilib bersangiz, deb xitob qilibdi. Uning arzini ijobat qilib, bir dono kishini shaharni qurishga bosh qilib qo'yibdi. Bu kishini ismi Farg'ona bahodir bo'lgan ekan.²¹

Shaharni qurish uchun u kishi har joydan odamlar, ustalar olib kelib, o'rnashib "harxona", "parxona", "parg'ona" deb bu ustaning ismi bilan Farg'ona deb yuritilib kelingan.

O'sha kishi tomonidan non tutgan joy nomi Marg'inon shahridir. Keyinchalik Marg'inon so'zi o'zgarib Marg'ilon deb ataganlar. Buning isboti sifatida Marg'ilonda podsho Iskandarning mozori borligidir.

Farg'ona shahrining vayrona qilinishi Chingizxon o'g'illari va Temuriyzodalar o'rtasidagi jangu-jadallarni asos qilib ko'rsatish mumkin. Bu kurashlardan oldin arablar ham Farg'onaga uch marotaba yurish qilgan. Bu qonli janglar natijasi shahar aholisining qirilib ketishining oldini olish maqsadida sulh tuzishga majbur bo'lganlar.

Sulh tuzish Farg'ona xalqining boshiga katta ziyon-zahmatlarning yog'ilishiga sabab bo'ldi. Chunki arablar sulh natijasida har yili shahar ahlidan katta-katta majburiyatlarni, soliqlarni yig'ib berishlarini talab qilgan. Musulmonlar davrida Marg'ilon poytaxti Yormazor, Andijon poytaxti Asaka, Namangan poytaxti To'raqo'rg'on bo'lib, u erlarning havosi toza, suvi pokiza. Bu territoriyalarni hokimlar va markaziy hukumat a'zolari nazorat qilib turgan.

²⁰ Мерос.Ибрат "Фаргона тарихи" Тошкент "Камалак".1991-Б 279

²¹ -Ўша асар –Б 280

Keyingi davrlarni tahlil qiladigan bo'lsak, Farg'ona Rossiya tasarrufida bo'lgan va turkistonni ham qismlarga bo'lib boshqarganlar. Buning asosiy sababi "bo'lib tashla, hukmronlik qil" terminiga amal qilmaganligidan dalolat beradi. Oddiy qilib aytganda boshqarish oson bo'lishi uchun to'rt oblastga bo'lingan. Bulardan biri Farg'ona bo'lib u ham besh qismga bo'lingan. Bular: Qo'qon, Marg'ilon, Andijon, Namangan, O'sh shaharlari bo'lib, boshqa oblastdagi shaharlarning kattaligi, ko'rkamligidan qolishmaydigan shaharlar qatoriga kirgan.

Farg'ona va uning shaharlari qadimiyligi bilan ajralib turgan. Asosan bu erdagi aholi dehqonchilik qilib kun kechirganligini, hunarmandchilik taraqqiy etganligini asar orqali bilib olishimiz mumkin.

Farg'onada istiqomat qilib kelgan xalqlarning etnogenizmga qaraydigan bo'lsak, bu erda o'zbek, tojik, qoraqalpoq, tog' taraflarda ko'chmanchi chorvador qirg'izlar yashab kelganlar.

Yuqorida aytganimizdek, Farg'onaning erlari unumdorligi, suvi shirin, havosi tozaligi, erlari hosilga yaroqliligi va hukmdorlarning olib borgan ijobiy hathti-harakatlari, farg'ona shahrining rivojlanishiga turtki bo'ldi, desak xato bo'lmaydi.

Yana bir o'lkamizni hozirda o'z chiroyi bilan mamnun qilib kelayotgan jahon hamjamiyati nigohida bo'lgan shaharlardan biri Andijondir. Bu shahar tarixi bilan qiziqish tabiiydir.

Andijonning asl nomi Andigan bo'lib, forschada va arabchada "j" bo'lib o'qilib ketilgan. Mahmud Qoshg'ariyning "Qutadg'u bilig" asarida aytib o'tilishicha, Andijon to'rt ming yil oldin ya'ni O'g'uzxon davrida shahar bo'lgan bo'lsa ham oldin go'zal, navqiron shahar bo'lgan deb manbalarda tilga olinadi. Bu shaharda Turon shohi Afrosiyobning hukmronlik yillarida bu joyni poytaxt qilib, yanada gullab-yashnashi uchun turtki bo'lgan.

Turon shohi davrida bu shahar qurilishiga, obodonlashtirilishga, aholining turmush darajasi o'stirilishiga katta ahamiyat berganligi ta'kidlanadi.

Ammo aholining va qariyalarning ta'kidlab o'tillaricha, bu shahar Odinajon bo'lib, u Afrosiyobning qizi bo'lgan. Unga bog' bunyod qilib berib, uning nomi

bilan ataganlar. Oдинаjon vaqt o'tishi bilan insonlar tilida Andijon deb e'tirof etilgan.²²

Andijon bora-bora bir necha marotaba buzilib, yana bunyod bo'lgan. Bu vayronagarchilikning sababi urushlar va zilzilalar, desak xato bo'lmaydi. Hozirgi kunda Andijon shahri, shaharlar ichida tengi yo'qligi bilan ajralib turadi.

Yana shunga o'xshash go'zal shaharlardan biri Namangan bo'lib, u aslida Namakon bo'lgan. Buni oson qilib aytish uchun Namangan yoki Namangon deb aytib kelganlar. Namanganda avvallari hech kim yashamay, to'qqiz yuz yil ilgari bu erlar cho'lu-biyobon, ko'l, tuzli joy bo'lib, bu vaqtda Buxoro xonlarida Abdullahjon Farg'ona taraflarga kelib, har erga sardobalar qazdirib va gumbazlar qurdirib, ko'p sonli xalqqa nafi tegadigan xon bo'lgan ekan.

Bu erda bir necha kun turib shunga amin bo'lganki, daryo bir tarafi tog' bilan o'ralganligi, havomi ufurib turishini ko'rib bu territoriyaga shahar, aholi manzilgohlari qurishni aytib o'tgan ekan. Bu erning daryo tarafidagi bir qismida sho'r joy bo'lib buni Namakkon deb ataganlar.

Keyinchalik talaffuzda Namak kon o'zgarib Namangan deb atab kelganlar. Hozirgi Namangan shahrining yoshini turlicha tariflaydilar. Masalan, Ibratning "Farg'ona tarixida" uni to'qqiz yuz oltinchi hijriy (1501 y) yillarga to'g'ri kelishi aytiladi. Uning e'tirof qilishicha bu shaharni bunyod va ravnaq topishiga turtki bo'lgan shaxs Abdullahxondir.

Bu asarning qimmatliligi shundaki, o'lka tarixchilari o'lkamizning iqtisodiy, ma'naviy hayoti bir so'z bilan aytadigan bo'lsak, kompleks tarzda o'rganganligida hamda bo'rttirishlarsiz asl holda yoritilganligidadir.

19 asrning boshlaridan to 20 asrning birinchi yarmigacha o'lka tarixini o'rganish jadal suratlarda davom etdi. Buning natijasi o'laroq turli ma'no-mazmunga ega qimmatli asarlarning yaratilishiga olib keldi.

19 asrning o'rtalarida Buxoro amirligida katta nufuzga ega bo'lgan tarixchi Muhammad Yoqub bo'lib, u amirlikdagi hayotni, o'zaro xonliklar o'rtasidagi

²²Мерос.Ибрат “Фаргона тарихи” “Тошкент “Камалак”.1991-Б 324.

kelishmovchilikni yoritib o'tgan. U tomonidan "Gulshan ul -mulk" nomli asari o'sha davr tarixiy manbalardan biri hisoblangan. Bu asar tojik tilida yozilgan bo'lib, unda qadimgi zamonlardan to 19 asrning 30 yillarigacha bo'lgan Buxoro amirligidagi iqtisodiy, siyosiy voqealar tarixi bayon qilingan.

Bu asarning qimmatligi Buxoro aholisini madaniyati, dini, oilaviy munosabatlari, xo'jalik turlari haqida, aholi bilan amirlar o'rtasidagi munosabatlar yoritilgan. Bu asarda asosan siyosiy voqealar, amirlarning hokimiyat tepasiga kelish boshqaruvchiligi, davlat amaldorlari bilan o'zaro munosabatlari o'z ifodasini topgan.

Mulla Ibodulla va Mullla Shariflar tomonidan tojik tilida yaratilgan "Tarixi amir Haydar" nomli qo'lyozma asarda esa ashtarxoniylar bilan mang'itlar sulolasi tarixi, Amir Shohmurodning tug'ilishidan boshlab to Amir Haydarning o'limi (1826) gacha Buxoro amirligida bo'lib o'tgan siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy holatlarga ham to'xtalib o'tilgan. Shu bilan birga asarda 1820 yilda A.F.Negri boshliq Rossiyadan Buxoroga yuborilgan diplomatik missiya haqida ham ma'lumot berilgan.

O'lkashunoslik manbalari orasida haqiqiy ilmiy oqartuv muassasasiga aylangan yuqorida aytib o'tgan muzeylarning o'rni va ahamiyati kattadir. Biz o'rganilayotgan davrda o'lka muzeylarini tuzish, muzey ko'rgazmalarini to'plash va xalq ommasiga tariximiz, madaniyatimizning ochilmagan qirralarini ko'rsatganlar. Muzeylar aholining keng tabaqalari o'rtasida madaniy, ma'rifiy ishlarni olib boradi. Muzeylar madaniy ma'rifiy muassasa sifatida ommaning ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish, ularni ma'naviy kamolotga etkazishning eng etakchi vositalaridan biridir.

Bizning o'tmish ajdodlarimizning turmush tarzi, ularning moddiy va ma'naviy hayotini gavdalantirishda O'zbekiston xalqlari tarix muzeyining o'rni kattadir. Bu muzey birinchi bo'lib, Turkistonning mashhur olimlari va ommaviy arboblari bevosita rahbarligi va yordamida 1876 yilda tashkil etildi.²³ Muzeyda

²³Ильгиз Илалов. Музееведение. Ташкент . "Musiqqa" 2006-c 235.

nodir eksplanantlar, ya'ni erkiologik, arxeologiyaga numuzmatikaga doir moddiy ashyolar saqlanganligini ko'ramiz.

Shunday qilib, 19 asrning oxiri, 20 asrning boshlarida o'lka tarixini o'rganishda ilmiy jihatdan diqqatga sazovor bir qancha ishlar yaratilib, tadqiqotchi olim va o'lkashunoslar safi kengaydi. Ular o'z asarlarida o'zbek va Osiyo xalqlari ma'naviy-ma'rifiy turmushining xususiyatlari, urf-odatlar, urug'-aymoqlari, diniy e'tiqodlari va ijtimoiy-siyosiy voqealarni ochib beruvchi ilmiy asarlar yaratdilar. Biz bu asarlarni o'qib, tahlil qilib, o'lkamiz hayotini, insonlarning orzu-umidlarini, qarashlarini o'rganib, kelajak avlodlarga boyitgan holda etkazib berishimiz kerak.

XIX asrning birinchi yarmi XX asr boshlaridagi Xiva va Qo'qon xonligida yozilgan tarixiy manbalar muhim hisoblanadi. Shunday manbalar qatoriga munis va Ogohiyning asarlari kiritsak bo'ladi.

Munis (1778 – 1823) ning otasi. Avazbiy mirob Xiva xoni eltuzarga qadar ham, uning hukumronligi vaqtida ham saroy xizmatida bo'lgan. Eltuzarxonning hukumonligi vaqtida Munis saroy xizmati kiradi va xonning topshirig'i bilan o'zining “Firdavs ul – iqbol” nomli mashhur tarixiy asarini yozadi. Eltuzarxon Shermuhammad Munisga bu asarni “Firdavsiyning” “Shohnoma” asaridan ustun qilib yaratishni ham uqtiradi. Munisning bu asari o'zbek tilida yoziladi. U Xiva xonlarining u davrdagi o'lka tarixi undagi ijtimoiy - siyosiy jarayonlarining yoritishda Abdulg'ozining asarlaridan foydalanib yozadi. Xiva xonligining XIX asrdagi tarixiga oid voqealarni esa shu voqealarni o'z ko'zi bilan ko'rgan kishilar va ayniqsa, otasining bergan ma'lumotlari uning asarlarini qiymatini oshirirar edi. U ko'plab tarixga oid ma'lumotlar to'playdi va bunday tarixiy voqealarni o'rganish tahlil qilayotgan bir vaqtda xon tomonidan boshqa vazifa Mirxondning mashhur asari “Ravzat - ussofo” fors tilida o'zbek tiliga tarjima qilish uchun topshiriladi. Munis bu asarning birinchi kitobini tomomlab ikkinchisini boshlagan paytida Xiva xonlaridan Olloqulixonning 1244 hijriyda (1825 yil milodiy) Xurosonga qilgan harbiy safarida saroy muarrixsi sifatida ishtirok qilgan Munis Xorazmiy bu yurishda tarqalgan tovun (vabo) kasali bilan og'riydi va to'satdan vafot etadi. Ollaqulixon bevaqt vafot etgan shoir va olim Shermuhammad Munis o'rniga Ogohiyning

miroblik vazifasiga tayinlaydi¹. Munisning ishlarini davom ettirdi. Ogahiy bu haqda soʻzlab, Munisni shunday hurmat va ehtirom bilan tilga olar ekan, oʻzini uning oʻrniga mirob qilib tayinlanganligini aytib oʻtadi.

Munis Xorazmiydan keltirilgan maʼlumotlarga qaraganda Ogohiy Munisga yaqin qarindosh – jiyani ekani toʻgʻrisidagi maʼlumotni alohida taʼkidlab oʻtadi. Munisning ilmiy merosiga nazar tashlasak koʻplab maʼlumotlar etnografik arxeologik turli tarixiy voqealarni ochib bera olgan. Oʻtmish tariximizni u davrdagi hayotiy haqiqatlarni anglab his qilishda munisning asarlari muhim hisoblanadi.

Yana shunday oʻz zamonasining taniqli shoir usta tarjimon yirik muxarrix (tarixiy) olimlardan biri Muhammad Rizo Mirob Erniyozbek oʻgʻli Ogohiydir.

U nihoyat XIX asr Xiva xonligi tarixiga oid bebaho asarlar yaratgan muarrix olim va jamiyat hayotida muhim ahamiyatga ega boʻlgan ijtimoiy vazifalarda turgan davlat va jamoat arbobi hisoblanadi.

Oʻz amaliy va ijodiy faoliyati bilan adabiyotimiz va madaniyatimiz taraqqiyotiga hissa qoʻshgan shoir Ogahiyning merosi, baxtga qarshi, shu vaqtgacha durustgina oʻrganilmagan. Toʻgʻri, ilmiy adabiyotda bu sohada baʼzi ishlar bor. Masalan, sharqshunoslik ilmida, ayniqsa uning Turkiston tarixiga oid sohada Ogahiy merosi birmuncha oʻrganildi. Turkiston tarixi, shu jumladan, Xorazmning oʻtmish toʻgʻrisida ilmiy tadqiqotlar olib borgan turkistonshunosligi akademik V.V.Bartolʻddan tortib, bizning davrimizdagi atoqli Xorazmshunos Yahyo Gʻulomovgacha barcha olimlar oʻz tekshirishlarida Ogahiy asarlaridan foydalandilar.

Ogahiyning yashab ijod etgan zamoni feodal munosabatlari asosida qurilgan mayda xonliklar hukmronligi davriga toʻgʻri keladi. Bu davr boy va sharaflı yoʻlnı bosib oʻtgan oʻzbek xalqi tarixining eng qorongʻu va fojiali sahifasini tashkil qiladi. XVII – XVIII asrlarnı oʻz ichiga olgan feodal tarqoqoligi – separatizm harakati avj olgan davrda oʻzbek xalqi va uning qadim zamonlardan beri yashab

¹ Muhammad Rizo Mirob Erniyozbek oʻgʻli Ogahiy asari I jilt. Toshkent. |"Gʻafur Gʻulom nomidagi adabiyot nashriyoti". 1971- B 3 – 19.

kelgan muqaddas tuprog'i manfaatparast va amalparast johil xonlar, beklar tomonidan parchalandi, taqsim qilib olib talandi.

Bu davrda mamlakatning hamma viloyat va tumanlari o'zaro urushuvi son – sanoqsiz mustaqil “davrlarcha”larga bo'linib ketdi, hatto ayrim shaharlar bir – biriga zid bo'lgan bir necha mustaqil “hukumatcha”lardan iborat bo'lib qoldi. Tarixiy manbalarning guvohlik berishiga qaraganda, XVII asrning o'rtalarigacha Toshkent shahri feodal o'zaro urushlari oqibatida to'rt qismga bo'lingan va to'rt mustaqil hokim tomonidan idora qilinar edi.

Uch xonlik (Buxoro, Xiva, Qo'qon) hukumronligi davrida davom etgan siyosiy hayotidagi anarxiya, iqtisodiy tushkunlik, umumiy vayronlik, rahmsizlarcha o'rnatilgan vahshiyona ekspluatasiya xalq boshiga son – sanoqsiz kulfatlarni yog'dirdi. Chekdan oshgan zulm va adolatsizliklarga qarshi xon va beklar zo'rovonliklaridan toqati toq bo'lgan xalq bir necha marta bosh ko'tarib chiqdilar. To'rt yil mobaynida to'xtovsiz davom etgan (1821 – 1825) va Buxoro amirligi saltanatini larzaga solgan Miyonkal qo'zg'oloni xalq ozodligi harakatining qudratli ko'rinishlaridan biri edi. 1826 – 27 yillarda Xiva xonlari zulmiga qarshi turkmanlar bosh ko'tardilar. Shu yillar atrofida – 1827 – 28 yillarda Oqyoqish degan joyda Xeva xonlarning talovchilik siyosatiga qarshi qoraqalpoqlar qo'zg'aldilar. Bu kuchli xalq harakatiga mashhur qahramon Oydo'st boshchilik qildi. Xeva xonlaridan Muhammad Amin hukumronligi davrida (1845 – 1855) xonlikda kuchli xalq qo'zg'oloni boshlandi. Qo'zg'olonga olako'z nomi bilan shuhrat qozongan xalq qahramoni Ernazar boshchilik qildi. 1858 –1859 yillarda xalq qo'zg'oloni bo'lib o'tdi, bu qo'zg'olonda Qoraqalpoqlar bilan birgalikda O'zbeklar, Qozoqlar ham ishtirok etdilar.

Junaydilla Hoziq (XVIII asr oxiri, XIX asrning birinchi yarmida yashagan) xalq o'rtasida “Amir qassob” deb nom chiqazgan. Buxoro amiri Amir Nasrulloning qonli siyosatiga qarshi chiqqani uchun amir jallodlari tomonidan o'ldirildi. Maxmur Qo'qon xoni Olimxonga (vafoti 1811 yil) va boshqa xonlarga qarshi satirik she'rlar yozib, xalq manfaatini himoya qilgani uchun qashshoqlikka mahkum etildi va bugun umrini och va yalang'ochlikda o'tkazishga majbur bo'ldi.

Keksayib qolgan shoira Nodira o'zining erkparvarlik ruhidagi she'rlari va mamlakat obodonligi yo'lidagi tadbirlari uchun 1842 yilda Amir Nasrullo tomonidan o'g'li va ikki go'dak nabirasi bilan birgalikda boshi kesildi. O'z davrining talantli shoirlari Mujrim Obid, Muhammad Sharif Gulxaniylar butun hayotini qiyinchilikda moddiy va ma'naviy azob – uqubat ichida o'tkazishga majbur qilindilar. Shuning uchun ular ijodida, turmush haqsizliklariga, adolatsizliklariga qarshi ko'tarilgan faryod, fig'on – hududlari alangalanib turadi yilda yozgan “Xeva shoir va adabiyotchilarning tarjimai hollari” asari va nihoyat

Ogahiy tarjimai holiga oid manbalar ko'p. Ayniqsa, XIX asr Xorazm tarixiga oid qo'lyozma kitoblarda Ogahiy hayotiga doir ma'lumotlarga tez – tez duch kelish mumkin. Bu jihatdan ma'lum va mashhur olim va podsho Munis Xorazmiyning “Firdavsul –iqbol” tarixiy xronikasi, Ahmad Tabibiyning “Majmuat – ush shuaro” antologiyasi, Xorazm muarrixi Bayoniyning “Shajaran Xorazm shohiy” kitobi, “Laffasiy” taxallusi zamondosh shoirlardan Hasan Murod Muhammda Amin o'g'lining XIX asrning ikkinchi yarmida tuzilgan bir qator qo'lyozma va litografik bayozlar diqqatga sazovordir. 1829 yildan boshlab saroy ishlariga aralashgan, mirob sifatida xalq hayotini yaqindan o'rgangan Ogahiy katta turmush tajribalarini ortttirdi, hayotning hamma baland – pasttini – dabdabali saroy hayotidan tortib, talangan, gadoylarcha umr kechirishga majbur bo'lgan kosib hunarmandlar, mehnatkash jafo chekkan dehqonlar hayotini o'z ko'zi bilan ko'rdi, kuzatdi.

Ogahiy 1839 yilda ustozi va murabbiysi Munis Xorazmiy (1778 - 1829) boshlangan, lekin tugallanmay qolgan tarixiy asar “Firdavsiy - iqbol”ni davom ettirishga kirishadi va Muhammad Rahimxon I hukumronligi oxirigacha (1825 yil) bo'lgan voqealarning bayoni bilan tugatadi.

Ogahiy 1844 yilda “Riyozud - davlat” (“Baxt – saodat bog'lari”) tarixiy voqeanomasini yozib tamomlaydi. Bu asar Xiva xonlaridan Ollaqulixon hukumronligi davri voqealarini o'z ichiga oladi.

1845 yilda Ogahiy hayotida ko'ngilsiz voqea yuz beradi: u miroblik vazifasi bilan safarga yurgan vaqtida otdan yiqilib, oyog'i sinadi. Oradan ma'lum zamonlar

o'tishi bilan shu dard tufayli shoir butunlay o'tirib qoladi. Ogahiy o'z kasali haqida so'zlab, "Oyoqim shakarlang" bo'ldi, deydi. Lug'at kitoblari oyoqni butunlay ishdan chiqib qolishini, shol bo'ishini "shakarlang" kasali deb ko'rsatadilar. Bu musibat ustidan Ogahiy hayotida yana bir baxtsizlik ro'y berdi. Ogahiy o'z asarlarida shu kasal bilan yotgan kezlarda xotinidan ham judo bo'lib, "g'am – anduh bilan g'ariblik go'shasida" yolg'iz qolganini so'zlaydi.

Ogahiy 1846 yilda Xeva xonligi tarixiga oid uchinchi asari – "Zubdatut – tavorix" ("Tarixlar qaymog'i") asarini yozdi. 1846 – 1855 yillarda hukumronlik qilgan Muhammad Aminxon davri voqealariga Ogahiy o'zining "Jomeul – voqeoti sultoniy" ("Sulton voqealarining yig'indisi") asarini bag'ishlaydi. XVII – XIX asrlar Xorazm xonligi madaniy hayoti uchun xarakterli bo'lgan xususiyatlardan biri tarixiy asarlar yaratishdir. Abdulg'ozi Bahodirxonning "Shajarai turk" asaridan boshlangan bu tradisiya XX asargacha – Bayoniygacha davom etdi. Tarixiy asarlarga bunday keng e'tibor berishni boshqa xonliklarda – Buxoro, Qo'qon xonliklari madaniy hayotida ko'rmaymiz. Aksincha, Buxoro xonligi madaniy hayoti uchun tazkiranavislik xosdir, qo'qon xonligida esa tarixiy temada she'riy dostonlar yozish avj oldi.

Xorazm xonligi madaniy hayotiga xos bo'lgan bu xususiyatni o'z vaqtida akademik V.V.Bartol'd ham ta'kidlab o'tgan edi:

"Munis va Ogahiy tomonidan yaratilgan adabiy va tarixiy asrlar qanchalik kamchilikka ega bo'lmasinlar, tarixiy voqealarni bayon etish va ularda keltirilgan faktik materiallarning ko'pligi jihatdan bizgacha etib kelgan Qo'qon va Buxoro xonliklari tarixi bo'yicha bo'lgan hamma asarlarni o'zidan ancha orqada qoldiradi"¹

Xorazmda tarixiy adabitning rivoj topishida Ogahiyning ishni davom ettirib, Muhammad binni Xovandshoh Mirxondning ko'p tomlik "Ravzatus safo" asari tarjimasini oxiriga etkazishidan va tugallanmay qolgan "Firdavsul – iqbol" asarini yozib tugatishidan tashqari o'zi beshta tarixiy asar yaratdi. Bu asrlarning qo'lyozma nusxalari Toshkent, Leningrad fondlariga saqlanadi.

¹ B.B.Bartol'd. Istoriya kul'turnoy jizni Turkestana. Lelengrad. 1927, 113 b.

1. “Riyoʻzud – davlat”. Ogahiy “Firdavsul – iqbol” asarining bayon qilib, Muhammad Rahimxon I hukmronligi davrini tugatgan boʻlsa, “Riyoʻzud davlat” asarida 1825 – 1843 yillar tarixiy voqealarini, Ollaqulixon hukmronlik qilgan zamon voqealarini tasvirlaydi.

1844 yilda yozilgan bu asar Xorazm xalqi hayoti haqida qimmatli maʼlumotlarni oʻz ichiga oladi. Kanallar qazish, sugʻorish inshootlari yaratish, yangi binolar qurish, Rossiya bilan olib borilgan aloqalar, Xeva xoni Olloqulixonning Xuroson oʻlkasiga va boshqa viloyatlarga qilgan hisobsiz harbiy yurishlari haqidagi xabar kitobning asosiy mazmunini tashkil qiladi. Ayniqsa, Ogahiyning 1827 –1828 yillarda Oydoʻst rahbarligida boʻlib oʻtgan xalq qoʻzgʻolonining tafsiloti haqida bergan maʼlumotlari qimmatlidir.

2. “Zubdatut – tavorix”. Bu tarixiy xronika 1845 –1846 yillar atrofida yozilgan boʻlib, 1843 –1846 yil voqealarini, Rahimqulixon davri xronikasini beradi.

“Zubdatut – tavorix” asari asosan Buxoro va Xeva xonlari oʻrtasida toʻxtovsiz davom etib turgan urushlar tasviriga bagʻishlanadi. Kitobda xalq qoʻzgʻolonlariga ham kattagina oʻrin berilgan.

3. “Gulshani davlat”. Asar 1856 – 1865 yil voqealarini tasvirlashga bagʻishlangan. Bu avrda Xeva taxtida Said Muhammad Bahodirxon hukmronlik qilgan edi.

Asarda xalq qoʻzgʻolonlariga katta oʻrin berilgan. 1855 – 56 yillarda roʻy bergan xalq harakati, oʻzbek va turkman urugʻlaridan tashkil topgan qoʻzgʻolonchilarning Rossiya hukmdorlariga yordam soʻrab maktub yozishi, uning oqibatlari, shuningdek qoʻzgʻolonchilarga qarshi Xeva xonlari tomonidan uyushtirilgan qattiq choralar, mamlakatdagi tinchsizlik natijasida sodir boʻlgan qahatchilik, ochilik batafsil tasvirlangan.

4. “Shohidi iqbol”. Asar 1865 yilda Muhammad Rahimxon II taxtga oʻtirishidan boshlab, to 1872 yilgacha boʻlgan voqealarni bayon qiladi. “Shohidi iqbol” asarida Buxoro xonligi bilan Rossiya oʻrtasida sodir boʻlgan harbiy konflikt va uning natijalari mukammal tasvirlangan.

Ogahiyning bu besh tarixiy asari fakt materiallarining boyligi va ishonchli bo'lishi bilan ajralib turadi. Bu asarlarni butun hayotini Xorazmda kechirgan va hodisalarning bevosita guvohi bo'lgan yoki ularni mutlaqo ishonchli manbalardan olgan ilg'or fikrli o'z zamonasining katta olimi yozgan. Shuning uchun bu asarlarda berilgan ma'lumotlar, ba'zi istisnolardan qat'i nazar, tarixiy haqiqatga mos va katta ilmiy – ma'rifiy ahamiyatga egadir.

Ogahiy tarixiy asarlari 1813 yildan boshlab, ya'ni Muhammad Rahimxon I hukumronligining ikkinchi qismidan tortib, 1873 yilgacha uzoq vaqtdagi tarixiy voqealarni xronologik izchillik bilan mukammal bayon qilib beradi. Ogahiy tarixiy xronokalari XVII – XIX asr o'zbek xalqi tarixini, ayni zamonda, qardosh turkman, qozoq, qorqalpoq xalqlari tarixini o'rganishda ham mislsiz qimmatli materiallar beradi va nodir birinchi manba hisoblanadi.

Ogahiyning adabiyot tarixi, taraqqiyotidagi o'rni va ahamiyati katta. Bu ahamiyat, dastavval, uning zo'r matonat va mahorat bilan kuylagan ulug' g'oyalarida, ilg'or, olijanob orzu – istaklarida ko'rinadi. Ogahiy o'zbek klassik poeziyasidagi gumanizm, xalqchilik realizm kabi trasiyalarning haqiqiy merosxo'ri va ijodiy davom ettiruvchisi bo'lib chiqdi. Ogahiy o'z ijodiy faoliyati bilan XIX asr tarixiy sharoitidan oziqlanib, adabiyotimizni yangi mazmun bilan boyitadi, unda xalqning hayoti haqidagi eng ezgu orzu – umidlarini ifoda etdi. Ogahiy ijodi o'zining chuqur ildizlari orqali davr mazmunidan oziqlanib turishi va xalq intilishlarini o'zida haqqoniy aks etirishi bilan realistik mohiyatga egadir.

Poeziyasining boshqa muhim ahamiyati shundaki, u ulug' talant egasi sifatida yuksak badiiy asarlar yaratdi. Ogahiy insonlarga xos bo'lgan murakkab ruhiy kechinalarni, eng aziz va muqaddas hisoblangan muhabbat tuyg'ularini rango – rang bo'yoqlarda, ravon va jozibador uslubda tarannum etdi. Ogahiy poezisining yuqori badiiy estetik xususiyatlari bugungi kitobxonlar uchun ham aziz qimmatlidir.

Hayot butun murakkabligi bilan dialektik qarama – qarshi nuqtalarni o'z ichiga olgani kabi, shu hayotni o'zida aks ettirgan ijod ham murakkabdir, qarama – qarshi nuqtalarga egadir. Ogahiy o'sha zamonda, adolatsizlik, tengsizlik asosiga

qurilgan qoloq jamiyatida o`z orzlariga eta olmadi, aksincha, zamon uning olijanob intilishlariga loqayd qaradi,

3. Rus ziyolilarining mahalliy o'lkashunoslikka ta'siri.

O'lkamizning tarixini o'rganish mahalliy tarixchilar bilan birga rus ziyolilari har doim birday qiziqtirib kelgan. 19 asrning ikkinchi yarmida O'rta Osiyo chora askarlari tarasidan bosib olingach, bu erga rus fuqarolari bilan olimlari kelib ko'plab tadqiqot ishlarini olib bordilar. Mustamlaka ma'muriyati O'rta Osiyo xalq omamasining milliy ongini o'stirishga yordamlashishini aslo ma'qul ish deb bilmasdi. aksincha mahalliy xalq ommasi orasida tarixiy bilimlarni biroz darajada keng targ'ib etish, ular diqqatini qadimgi zamon yodgorliklarini o'rganishgatorish va hokazolar chorizmning mustamlakachilik siyosatiga faqat zarar etkazishi mumkin, deb qo'rqardi.

Turkiston ahlining durustroq o'rganilmaganligi mustamlaka ma'muriyatining ishlarini qiyinlashtirardi. Ilmiy tadqiqotlardan ba'zi birlari o'zlarining ko'p yillik tarixiga, o'z urf-odatlarini, xususiyatlari, turmush tarziga ega bo'lgan million-million Turkiston aholisini eksplutatsiya qilish tizimini tuzg'ridan-to'g'ri uyushtirishga yordam berishi lozim bo'lgan.

Tabiiy boyliklari, madaniy merosig'oyat boy bo'lgan va kam tekshirilgan bu o'lka rus ziyolilarining taraqqiyparvar qismini har doim qiziqtiribk elgan.

SHunday fidokor olimlardan N.A.Severinov (1827-1886) bo'lib, u Turkistonning ko'p joylarini fizik-geografik jihatdan o'rganishda, jumladan Pomir tizma tog'larining orografiyasini o'rganishda ko'p mehnat va kuch sarf qilgan. U sayohati paytida zoologiya, botanika, menerologiya va poleontolomyaga oid juda qimmatli kolleksiyalarni to'pladi.

Yana shunday olimlardan I.V.Mushketov (1850-1902) bo'lib u geolog va geografiyaga oid ilmiy tadqiqotlari bilan o'lkamizning tabiati va qazilma boyliklarini aniqlab bergan shaxs edi. Shimoliy Tyan'shan tizma tog'i orografiyasining geologik asoslarini dastlab u ko'rsatib berdi. U Turkistondagi ko'pgina foydali qazilma konlarini ta'riflab, Turkiston mineralining dastlabki ro'yxatini tuzib chiqqan.

1877-1879 yillarda u geologik tekshirish ishlarini bajarish maqsadida Oloy, Pomir, Buxoro, Hisorga Amudaryo bo'ylab va Qizilqumga sayohatlar qilgan. Uning eng katta xizmati Turkistonning birinchi geolognif xaritasini tuzganligida.

Mushketov o'z tadqiqotlari va Turkistonni o'rgangan boshqa olimlarning ilmiy ishlarini o'zining mashhur "Turkistonning geologiya va orografiya ta'rifi" degan monografiyasida umumlashtirdi.

O'lkamiz tarixi va hayotini o'rganish biz o'rganayotgan davrda qizg'in suratlar bilan davom etdi. Bunda ilmiy jamiyatlarning o'rnini aytib o'tish joiz. O'lkada hammasi bo'lib 15 ga yaqin ilmiy jamiyatlar ish olib bordi. Ular geologiya, geografiya, zoologiya, botanika, iqtisodiyot (qishloq xo'jaligi, sanoat), tarix, sharqshunoslik, arxeologiya, etnografiya, antropologiya, ilmiy tibbiyot va shu bilim tarmoqlari, yordamchi ilmiy fanlar sohasida tadqiqot ishlari olib borganlar

Ilmiy tadqiqotlardan to'plangan asari-atiqalar 1876 yil 12 iyulda A.P.Fel'shenko, V.F.Oshanin, L.A.Mavv kabi olimlar tashabbusi bilan o'lkaizdagi eng keksa ilmiy va madaniy oqartuv muassasalaridan biri hozirgi O'zbekiston xalqlari tarix muzey kollektsiyasidan joy oldi.

Keyinchalik bu muzeylarning soni ko'payishiga olib keldi.

O'lkamizning tarixini o'rganishda rus ziyolilari o'zining g'oyat katta ilmiy faoliyati bilan mahalliy tarixchilikka shubhasiz katta ta'sir ko'rsatadilar. Rus sharqshunoslari O'rta Osiyo tarixi yuzasidan jiddiy tadqiqot ishlari olib borish bilan birgabu ishga shu erdagi tarixchi havaskorlarni ham jalb qilish, ular bilan hamkorlikda ish olib borishga hakarat qildilar.

Turkistonga kelgan sharqshunoslar mahalliy tarixchi va havaskorlar o'rtasida yurib, yashab O'rta osiyo tarixi haqida muhim ma'lumotlar arlarni to'pladilar. Shu haqida tushuntirish ishlarini olib bordilar. Masalan, Aleksandr Kun, professor N.I.Veselovskiy va boshqa rus olimlari ham o'lkamiz tarixini yoritishda ulkan ishlarni qildilar. Bu oimlar bilan birga shu o'lkada yashagan mahalliy o'lkashunoslar o'rtasida savol-javoblar qizg'in davom etdi.

Tariximizni yoritishda mahalliy o'lkashunoslardan Mirza Abdurahmon Samarqandiy, Akmal Asqarov topilmalari, Po'lat Solievning qilgan ishlari o'lkamizni o'rganishda muhim ahamiyatli bo'ldi desak xato bo'lmaydi.

O'zining 2750 yilligini nishonlagan Samarqand asrlar davomida ulkan Sharqning ilmu ma'rifat va madaniyat markazlaridan biri sifatida jahonga dong'i ketgan qadimiy shaharlardan biridir. Bu o'lkadan mashhur allomalar, buyuk mutafakkirlar, ulug' olimu ulamolar va iste'dodliadiblar etishib chiqqanlar.

19 asrning 70-80 yillarida Samarqand shahri va uning atrofida o'z davrining o'qimishli va bilimli o'lkashunoslari qadimgi Sharq qo'lyozmalarining yirik bilimdonlari, mohir hattotlar, tarjimonlar, rassomlar yashab samarali ijod etganlar.

Mana shular safida o'lkashunos olim Sharq qo'lyozmalarining yirik bilimdoni, hattot va tarjimon Mirza Abdurahmon Samarqandiy ham bor edi. Uning to'liq ismi - Mirza Abdurahmon ibn Muhammad Latif Mustajir Samarqandiy bo'lib, 19 asrning 30 yillarida Samarqandning Ko'k masjid mahallasida tug'igan.²⁴

Mirza Abdurahmon yoshligida eski maktabda ta'lim olib, keyinchalik Samarqand shahridagi madrasalarning birida o'qishini davom ettirgan. Madrasada o'qib yurgan yillarida ustozlaridan hattotlik ilmini o'rganim, ma'lum muddat arizalar yozib beruvchi mirza bo'lib xizmat qilgan. Ayni vaqtda Samarqandda qo'xna me'moriy obidalar va Samarqandda qabr toshlariga nusxalar ko'chirib berish bilan ham shug'ullangan.²⁵

Mirza Abdurahmon keyinchalik otasi kasbi - savdogarchilik yo'lidan borib, otasi bilan avvalboshi Samarqand shahri va uning atroflarida, keyinchalik Turkiston va Rossiyaning yirik shaharlarida savdo-sotiq ishlarini olib borgan. Dastlab hunarmandchilik buyumlarini, keyinchalik esa fabrikada ishlab chiqilgan sifatli buyumlarni Rossiyaning Orenburg, Nijniy novgorod, Samara singari savdo va sanoat rivojlangan shaharlarida hamda Ibrat yarmarkalarida sotish bilan shug'ullangan.

²⁴ А.Набиев. Тарихий ўлкашунослик. Тошкент “Ўқитувчи”1996 -Б 25.

²⁵ Ўша асар Б -32.

Mirza Abdurahmonning Rossiya shaharlarida bo'lib savdo sohasida faoliyat ko'rsatishi, uning savdo-sotiq ishlarining qonun qoidalarini puxta o'zlashtirib olish bilan birga uning rus tilini o'rganishiga imkon yaratdi.

Ko'p o'tmay Mirza Abdurahmon Samarqandiy otasining vafotidan keyin tijorat ishlarini tark etib, yana hattotlik bilan shug'ullana boshlaydi, talantli hattot va iste'dodli tarjimon sifatida taniladi.

Samarqanddagi Go'ri Amir, Shohi Zinda binolariga hamda qabr toshlariga va forsiy yozuvlaridan Ulug'bek, tillakori, Sherdor madrasalari devorlarining peshtoqlaridagi arabiy va forsiy yozuvlardan nusxalar ko'chirib tarjima qildi.

Mirza Abdurahmonning hattotlik, tarjimonlik, o'lka tarixi, xususan qadimiy joylar tarixini yaxshi bilganidan xabar topgan sharqshunos xabar topgan Aleksandr Kun (1840-1888) yil Mirza Abdurahmonni Turkiston o'lkasi shaharlariga o'zi bilan birga olib ketadi.

Jumladan, Aleksandr Kun Mirza Abdurahmonni Buxoro amirligi, Qo'qon xonligi va Xiva xonligiga qarashli qadimiy shaharlarga tarjiyamon sifatida olib kelgan.²⁶

Shunday qilib, Mirza Abdurahmon 1870 yilning 30 aprelidan 29 iyunigacha Kitob, Shahrisabz, Urgut va Panjikent shaharlaridagi bekliklar va ularning atrof-hududlarini har jihatdan o'rganishda faol ishtirok etgan.

Mirza Abdurahmon Samarqandiy 1870 yilning aprelidan e'tiboran Zarafshon daryosining yuqori qismidagi Iskandarko'l ekspeditsiyasida tarjimon sifatida qatnashgan. Tarkibi turli mutaxassilardan iborat bo'lgan bu safarning asosiy maqsadi: birinchidan, 1868 yilga qadar Buxoro amirligiga tobe bo'lgan Hisor, Qo'lob, Baljuvon bekliklari, Qorategin va Darvoz shohliklari hamda Zarafshonning yuqori oqimidagi boshqa bekliklarni Zarafshon okrugiga qo'shib olish bo'lsa, ikkinchidan mazkur bekliklarda istiqomat qilayotgan aholi soni, ularning hayoti, turmush tarzi, xo'jalik yuritishi, tili va madaniyati, qazilma

²⁶ А.Набиев. Тарихий ўлкашунослик. Тошкент “Ўқитувчи”1996 -Б 32

boyliklari hamda harbiy jihatdan ahamiyati to'g'risida muhim ma'lumotlar to'plashdan iborat bo'lgan.²⁷

Shuningdek, safar davomida Mirza Abdurahmon Samarqandiy har bir shahar va qishloq, joy nomi va uning kelib chiqishi, qadimiy joylar, qal'a, qo'rg'on, minora, g'orlar, qoyalalar, ulardagi yozuv va tasvirlarning tarixini qadimgi me'moriy binolar, masjid, madrasa va maqbaralarning ichki va tashqi qismidagi yozuvlarning ma'nosini, bu yozuvlarning qachon va kim tomonidan yozilganini so'rab-surishtirib o'z kundaligiga yozib olgan.

O'lkashunos olim va tarjimon Mirza Abdurahmon Samarqandiy mahalliy aholi orasida qishloqma-qishloq yurib, ulardan turli ertak, afsonalar, rivoyatlar, to'y marosimlari va dafn qilish odatlari, oziq-ovqat, uy-joyi, anjomlari to'g'risida ham ko'plab qimmatli va muhim ma'lumotlar to'plagan.²⁸

Uning kundaligida Panjikentdan to Iskandarko'lgacha bo'lgan rayonlarning iqtisodiy tuzilishi, xo'jalik yuritishi, dehqonchiligi, jumladan erni ishlash uslubi, hosil miqdori, chorva soni va chorvachilik turlari kabi iqtisodiy masalalarga ham alohida o'rin berilgan. U Samarqand bilan Panjikent o'rtasidagi yo'lining holati, undan ot-arava o'tadimi, ariq ko'priklari bormi, ko'priklarning kengligi va uzunligi, O'rmijon qishlog'ining geografik joylashuvi va undagi muhim qurilishlar, ko'chalar, bog'lar, er xo'jaligi, ipakchilik, aholining turmush sharoiti boshqarilishi, soliqlar, ob-havosi to'g'risidagi ma'lumotlarga ham katta e'tibor bergan va ularni o'z kundaligiga qayd etgan.²⁹

Mana shu ma'lumotlar, o'lkamiz xususan, Zarafshon daryosining yuqorisida joylashgan aholining 19 asr tarixi, madaniyati va turmush tarzini o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

O'lkashunos olim Mirza Abdurahmon 1973 yilning aprel-iyun oylarida sharqshunos Aleksandr Kup bilan birgalikda Xiva xonligida bo'lib, xon arxivini tartibga keltirish, undagi nodir qo'lyozma asarlar va hujjatlarni saralash hamda xonlik hududida o'sha yillarda iste'molda bo'lgan soliq tizimini o'rgangan.

²⁷ А.Набиев. Тарихий ўлкашунослик. Тошкент “Ўқитувчи”1996 -Б 32.

²⁸ Ўша асар- Б 33.

²⁹ Ўша асар- Б 35.

Mirza Abdurahmon, shuningdek, Aleksandr Kup va boshqa mutaxassislar bilan birgalikda Buxoro va uning atroflarini o'rganish (asosan nodir qo'lyozma asarlar, kitoblar, tarixiy vaqf hujjatlari, qadimgi tangalar va asari antiqalarni to'plash) maqsadida kelgan. SHaharning eski qismidagi tarixiy obidalar bilan tanishib, binolardagi bitiklarni o'rgangan va ularni kundaligiga yozib borgan. SHaharning eski qo'lyozma kitoblar sotiladigan do'konlarini ko'zdan kechirib, noyob kitoblarni to'plagan.

1870 yilning avgust oyida Mirza Abdurahmon tarjimon sifatida Aleksandr Kup SHahrisabz bekligiga safar qilgan. SHahar va uning atrofidagi tarixiy joylar bilan tanishib, oqsaroydagi yozuvlarni o'rgangan va tarjima qilgan. Beklik saroyidan hamda mahalliy aholi qo'lidan tarixiy hujjatlar, qo'lyozma asarlar to'plab, o'zi bilan olib kelgan.

Mirza Abdurahmon Samarqandiy Aleksandr Kup bilan Qo'qon xonligiga safar qilib, u erdan ham qimmatbaho tarixiy qlyozma kitoblar va boshqa nodir hujjatlarni olib kelgan.

Mirza Abdurahmon Samarqandiy 1872 yili Moskvada tashkil etilgan yirik ko'rgazmada qatnashib, ko'rgazmaning Turkiston bo'limida tushuntirish ishlarini olib borgan. Samarqanddagi mashhur registon maydonidagi Ulug'bek, SHerdor va Tillakori madrasalarining chizma rangli maketlari o'rnatilgan va milliy uslubda bezatilgan bu bo'limda bir yarim mingga yaqin turli eksponentlar joy olgan.

Bu tarixiy ko'rgazmalarda Turkiston o'lkasi aholisining o'tmishi, madaniyati, turmush tarzi, qisqa kundalik hayoti aks ettirilgan edi. Ko'rgazma zallarida Aleksandr Kup va o'lkashunos olim tomonidan 1870 yil to'plangan tarixiy ashyolar ham namoyish etilgan.

Bular asosan hunarmandchilik ustaxonalari, dastgohlarda tayyorlangan buyumlar, mahsulotlar, aholining kiyim-kechaklari, ov va mehnat qurollari va boshqalarni tashkil etadi. Ko'rgazmada butun Turkiston o'lkasidan to'plangan eksponentlar milliy kashta va so'zanalar, gilam do'ppilar, xotin-qizlarning zebziynatlari, zargarlik buyumlari, shuningdek, paxtachilik, ipakchilik, bog'dorchilik, chorvachilik, o'rmonchilik va ularning mahsulotlari ham keng namoyish etilgan.

Ko'rgazma 1872 yilning 30 mayidan 3 sentyabrdagacha faliyat yuritib bu davr ichida ko'rgazmani 350 ming 536 nafar tomoshabin kelib ko'rgan.³⁰

Demak, turkiston bo'limidagi 1500 ga yaqin turli eksponatlarni kelganlarga tushuntirishda Samarqandlik Mirza Abdurahmon va Toshkentlik Mirza Safarlarning xizmatlari katta bo'lgan.

Shunday qilib, o'lkashunos olim va tarjimon Mirza Abdurahmon Samarqandiy o'z faoliyatida "Zarafshon daryosining yuqori qismidagi Iskandar ko'lida qilingan safar kundaligi", "Xiva xonligiga qilingan safar", "Buxoro va uning atrofiga qilingan safar", "SHahrisabz bekligiga qilingan safar" hamda "Maskva ko'rgazmasi kundaligi" asarlarini yozib, bizga qimmatli meros qilib qoldirdi. Bu qimmatli va tarixiy etnografik materiallar turkiston o'lkasini 19 asr tarixini o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Hozir bu muhim va qimmatli ma'lumotnomalar Rossiya fanlar akademiyasi SHarqshunoslik institutining Peterburg bo'limida 133-134 va 806 delolarda saqlanib kelinmoqda.

SHunga o'xshash mahalliy o'lkashunoslar ham 19 asr ikkinchi yarmida o'lkamizdan topilgan ashyolarga qazish hamda o'zlarining topilmalari bilan ham chiqib turdilar.

Turkiston mahalliy o'lkashunoslarining ishlari. kollektuiyalari o'z davrida xalqaro miqyosda ham e'tirof etilgan. Masalan, yuqorida ta'kidlab o'tganimiz Samarqandlik mashhur o'lkashunos, qadimiy buyumlar ishqibozi va to'plovchisi M.A.Samarqandiy, Mirzo Abdulla Buxoriy Parij ko'rgazmasining oltin va kumush, Turkiston o'lka ko'rgazmalarining 2 ta bronza nishonlari, diplom va faxriy yorliqlariga sazovor bo'lgan.

Hattot va tarjimon Mirzo barot Qosimov esa Turkiston hamda Parij ko'rgazmalarining oltin va kumush nishonlarini olgan. Ana shunday fidoiy ziyolilar qatorida Toshkentlik Akrom (19 asrning 40 yillaridan to 1891 yil 15 oktyabrgacha) yashab ijod etgan. U o'zbeklar orasidan etishib chiqqan birinchi

³⁰ Imom Al-Buxoriy saboqlari jurnali 4-son 2005 y, B-207

qadimshunos, elshunos olim bo'lgan. Akrom Asqarov to'g'risida 19 asrning 70 yillarida Turkiston viloyatining gzetasida dastlabki ma'lumotlar berilgan.³¹

Ularda Akrom Asqarovning o'lka tarixini, ayniqsa qadimshunoslik sohasida chuqur bilim va fikrga ega ekanligi, uning qo'lida ko'pgina tarixiy asaru antiqalar va tangalarning to'plangani eslatib o'tiladi. SHu bois mahalliy va rus ziyolilari uning o'lkashunoslik faoliyatiga yuksak baho berganlar.

Akrom Asqarov Toshkentning Beshyog'och dahasidagi Rakat mahallasidan bo'lib, ota-bobolari asli savdo-sotiq bilan shug'ullanib kelganlar. Akrom Asqarov yoshligidan yurt tarixi, Toshkent shahri va uning atrofidagi joylarning tarixiy nomlari, qadimiy yodgorliklarni o'rganishga qiziqqan. 19 asrning 80 yillaridan boshlab esa Jashtepa, Mingo'rik, To'ytepa, CHinoz, Namangan, Qo'qon, qadimiy Axsikent va SHohruhiya shaharlaridagi vayrona qal'alar, saroylar va binolarni o'rganib, arxeologik qazish ishlarini olib borgan.³²

Natijada qadimshunos olim turli davrlarda zarb etilib, eski binolar ostida qolib ketgan tangalarning o'zidan o'n besh mingdan ortig'ini yig'ishga muyassar bo'lgan. SHulardan 17 tasi oltin, 1498 tasi kumush va 13537 tasi mis tangalardir. Tangalardan tashqari Akrom Asqarov tasarrufida turli joylardan to'plangan neolit davriga oid tosh bolg'a, jezdan yasalgan sulug', jez oyna, jez iskana, jez ketmonlar, sopoldan yasalgan odam haykallari, bir bo'lak nefrat, isirg'a, but, baldog', tumor, mis va sopol idishlar, shisha buyumlar, yozuvli qayroq toshlar, ayollarning zebziynat taqinchoqlari, munchoqlar, mis va kumush qumg'onlar, muhrlar va o'lkamiz tarixini o'rganishga oid boshqa qimmatbaho ashyolar bor edi.

Akrom Asqarov mashaqqatli izlanishlar asnosida to'plangan tarixiy buyumlar va asari-antiqalarning bir qismini 1884 yilda Toshkent muzeyiga topshirgan³³

U mazkur topilmalarni 1870, 1878, 1886 va 1890 yillarda Toshkentda tashkil etilgan Turkiston o'lka qishloq xo'jaligi va hunarmandchilik ko'rgazmasida

³¹ Imom Al-Buxoriy saboqlari jurnali 4-son 2005 y, B-207

³² Imom Al-Buxoriy saboqlari jurnali 4-son 2005 y, B-208

³³ O'sha joyda B-208

namoyish etib, ko'rgazmaning oltin, kumush va bronza nishonlari, diplom , faxriy yorliq, qimmatbaho buyumlar bilan taqdirlangan.

Qadimshunos olim so'nggi marta vafotidan bir yil oldin 1890 yilda tashkil etilgan Toshkent ko'rgazmasida qatnashib, unda ham kumush va bronza nishonlari hamda diplom, faxriy yorliqlar va qimmatbaho buyumlar bilan taqdirlangan.

Akrom Asqarov 1884 yilda Toshkentga kelgan Peterburg universitetining professori N.I.Veselovskiy bilan tanishadi va u bilan Turkiston o'lkasi bo'ylab, qadimiy joylarda arxeologik qazish ishlarini olib borgan. O'sha davrdayoq uning arxeologiya sohasida qo'lga kiritgan yutuqlariga rus qadimshunos olimlari ham qoyil qolgan ekanlar.

Professor N.I.Veseliyskiy uning ijodiga yuksak baho bergan: "Toshkentlik Akrom Asqarov o'z faoliyati va ishbilarmonligi bilan vatandoshlari orasida alohida ajralib turadi... U har bir yodgorlikni moddiy qiymatidan tashqari, o'rnini hech qanday mablag' bilan to'ldirib bo'lmaydigan tarixiy ahamiyatga ham ega ekanini yaxshi biladi. U hech qanday mukofotni ko'zlamay, Toshkent arxeologiya muzeyiga o'zi va boshqalar nomidan ko'pgina asari-atiqalar, tarixiy buyumlarni kelasi avlodga qolsin deb topshirdi".

Harbiy o'lkashunos N.Myaev " Akrom Asqarov to'plagan o'ta noyob tarixiy buyumlar kamdan-kam uchraydi." -deb baho bergan edi. Qo'hna tarix va qadimiy joylarni yaxshi o'zlashtirib olganligi, madaniy va tarixiy merosimizni to'plash sohasidagi xizmatlari inobatga olinib, 1887 yilda Rossiya imperatorligi Arxeologiya jamiyati Akrom Asqarovni "Arxeologiyada erishilgan yutuqlariga yordam qilgani uchun" kumush nishoni bilan taqdirlagan. U Rossiyadagi yirik ilmiy tashkilot mukofotini olishga sazovor bo'lgan O'rta Osiyo miqyosidagi birinchi qadimshunos olim edi.

Akrom Asqarov o'zining qadimshunoslik faoliyatidan tashqari, qishloq xo'jaligi xususan, ipakchilikdan ham yaxshi xabardor bo'lgan. U mahalliy aholi orasida Amerika paxta navini birinchi qatorda ekib, yaxshigina hosil etishtirgan ajoyib tadbirkor dehqon ham bo'lgan. Ipakchilik uning ikkinchi kasbi hisoblangan. Akrom Asqarov ipak qurtining ozuqasi bo'lgan tut bargini yaxshi parvarishlash

usullarini bilgan, ipak o'rash, shoyi to'qish va u bilan avdo qilishni boshqalarga ham o'rgatgan. Qadimiy asori-atiqalarni to'plab, kelajak avlodlarimizga qoldirishdan iborat edi.

O'lkashunos olim farzandi Akbarxonga ham o'z kasbini o'rgatgan. Akrom Asqarov 1891 yilning 15 oktyabr kuni vafot etgan va Rakat qabristoniga dafn etilgan. Vafotidan keyin uning ishini o'g'li Akbarxon va rafiqasi Ulug'oy Xolmuhammedova davom ettirganlar.

Afsuski, bu inson umr bo'yi to'plagan boy madaniy merosimiz namunalari - arxeologik topilmalar o'z davrida etarlicha qadrlanmadi.

N.I.Veselenskiy, N.Maev, N.G.Mallinukiy, N.S.Lukashin, N.P.Ostraumov, D.Evarniukiy singari sharqshunos va o'lkashunos olimlar Akrom Asqarovdan ko'p narsalarni so'rab, undan ma'naviy "ozuqa" olish bilarga uning tasarrufidagi ko'p yillik mashaqqatli mehnati mahsuli bo'lgan arxeologiyaga tegishli asori-atiqalarni qo'lga kiritishga ham ko'p intilganlar, deganfikir mavjud. Vatanimiz tarixini yangi ma'lumotlar bilan to'ldiruvchi bu muhim topilmalarning bir qismi, chorizm amaldorlari, zobitlar, olimlar va savdogarlari tomonidan talon-toroj qilingan.

Jumladan, Akrom Asqarov vafotidan keyin u to'plagan tarixiy asari-atiqalar, buyumlar polkovnik N.S.Likoshin tasarrufiga o'tgan.³⁴ Akrom Asqarov to'plagan asari-atiqalardan Peterburgdagi yuqori martabali amaldorlar ham manfaatdor bo'lganlar. O'zlarining g'arazli maqsadlarini amalga oshirishga qiziqqan bu kimsalarning faoliyati Akrom Asqarov vafotidan keyin ayniqsa avjiga chiqqan.

SHu munosabat bilan rus imperatori Arxeologiya komissiyasi 1892 yilning 30 may kuni Turkiston ginerall-gubernatori mahkamasiga shoshilinch xat jo'natib, unda Akrom Asqarovga tegishli arxeologik buyumlarni Peterburgdagi imperator Arxeologiya jamiyati ixtiyoriga jo'natishni so'ragan. Turkiston ginerall-gubernatori generalleytenant baron A.B.Vrevskiy buyrug'i bilan Akrom Asqarovga tegishli tangalar, asari-atiqalar va buyumlar Peterburgga jo'natilgan.

"Turkistanskiy vedemosti" gazetasidagi (1892 yil 31-son) professor D.Evarneukiyning " Akrom Asqarovning arxeologik kolleksiya" nomli

³⁴ Imom Al-Buxoriy saboqlari jurnali 4-son 2005 y, B-208

maqolasida mazkur buyumlar birma-bir qayd etilgan. Mazkur ro'yxatdagi 17 ta oltin, 1488 ta kumush, 13535 ta mis tangalar 50 dan ortiq sopol buyumlar, 50 dona turli davrga mansub yozuvli tomlar, bronza lagan, bitta katta kumush qumg'on, 16 ta sopol ko'zalar, 763 ta har xil arxeologik topilmalar, 34 ta tarixiy qo'lyozma asarlar, nodir kitoblar, bitta mis vaza va boshqa tarixiy buyumlar Peterburgga jo'natilgan. Mazkur buyumlar hozir ham Rossiya Ermitaji zallarini bezab turibdi.³⁵

Mazkur topilmalar o'lkamiz yoshini aniqlashda hamda uyivilizatsiya o'chog'i bo'lganligidan darak beradi. Biz yosh tarixchilar zimmasida ana shunday eksponatlar topib o'lkamiz tarixiga o'z hissamizni qo'shishimiz kerak.

Akrom Asqarov singari fidoyi va jonkuyar ajdodlarimizning tabarruk ruhini shod etish har birimizdan Yurtboshimiz Islom Karimovning "Noyob tarixiy yodgorliklarni saqlash va ta'mirlash, o'zbek xalqi yaratgan va milliy boylik bo'lgan san'at asarlarini izlab topish, ularni O'zbekistonga tarqatish ma'naviy dasturimizning muhim bo'lagina tashkil etadi" degan so'zlarini aslo unutmasligimiz kerak.

³⁵ Imom Al-Buxoriy saboqlari jurnali 4-son 2005 y, B-207

Xulosa

Mazkur bitiruv malakaviy ishi o'lkamizda mahalliy o'lkashunoslarning o'lkamiz tarixini o'rganishga qo'shgan hissalarini hamda ular tomonidan yaratilgan ilmiy asarlar topilmalar jonajon vatanimiz tarixini yoritishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga mahalliy tarixchilarimiz tomonidan yaratilgan tarixiy asarlar mamlakatning xo'jaligi iqtisodiy munosabatlar, sinfiy kurash, xalq harakatlari va siyosiy voqealarning ijtimoiy – iqtisodiy ildizlarini ochib bera olishdagi muhim manbalar hisoblanadi. Tarixchilarimiz o'lkani o'rganishda, arxelogik, etnografik va toponimik materiallar to'plashda bu nodir asarlardan keng foydalanib o'z asarlari va ilmiy ishlarini boyitishda foydalanishlari mumkin.

O'lkamiz tarixi uzoq davrga borib taqalsada lekin ilmiy asoslangan holda taqoslab o'rganish XIX asrning ikkinchi yarmi ya'ni ruslarni kirib kelishlari bilan jadal suratda o'sib borildi. Ungacha bo'lgan davrda o'lka tarixini o'rganish bo'rtirishlarga va afsonalarga yo'yib o'rganilib kelinmoqda edi. Rus ziyolilari o'lkamiz hududida ilmiy tekshirish va bu tekshirishlarga mahalliy o'lkashunoslar bilan aloqalari hisobiga katta ilmiy asar va maqolalar yaratdilar. Shunday mahalliy o'lkashunos olimlarimiz Po'lat Soliev, Mirzo Abdurahmon Samarqandiy, Akrom Asqarov va boshqa shu kabi jonkuyar o'lkashunoslarimizning esa arxeologiya topomimikasiga etnografiyaga oid to'plagan asari – atiqalari orqali vatanimizni tarixini yanada navqiron ekanligini isbotlab berdi.

Yuqorida aytib o'tgan o'lkashunoslarimiz ilmiy merosidan, ular tomonidan topilgan noyob eksponatlarni ayrim rus olimu – sayyohlar tomonidan o'z shaxsiy manfaati yo'lida foydalanib kelinar edi. Hattoki bu nodir osori – atiqalarni ruslar milliyalashtirib o'sha davrga tashkil qilingan muzey eksponatlari qatorida joy olganini ko'rishimiz mumkin. Mustaqilligimizni dastlabki kunlaridan boshlab tariximizga va bu tarixni xolisona yoritishda o'zining jonkuyar mehnatlari bilan

xalq dardi yurt farovonligi yo`lida xormay – tolmay fidokorona mehnat qilgan olimu – ulamolar qadirlana boshlandi.

Albatta bunday fidoyi insonlar qatorida mahalliy o`lkashunos olimlarni ham e`tirof qilishimiz joiz. Bunday fidoiy va jonkuyar ajdodlarimizning tabarruk ruhlarini shod etish ular istagan komil inson bo`lib, jamiyat va davlat uchun o`rnak bo`ladigan kadir bo`lib etishishimiz darkor.

Hozirda yosh tarixchilar zimmasiga uzoq va yaqin o`tmishda kechgan turfa jarayonlar, voqealarni xolisona o`rganishga arzigulik tadqiqot ob`yektlari juda ko`pligini sira unutmasligimiz kerak.

Men bu bitiruv malakaviy ishni yozib oldimga kelgusi tatqiqotlarimda mahalliy o`lkashunos olimlarimiz asarlari, tariximizni gavdalantirishda yoritishda o`ziga xos o`ringa ega bo`lgan topilmalarni o`z ko`zim bilan ko`rib ishimni kengroq yoritishga harakat qilaman. Bu bitiruv ishimni yozib o`zimga chuqur ta`surot va tajriba to`pladim desam xato bo`lmaydi.